

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYA

S. M. NIZAMOV

YARASHUV TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISH
BO‘YICHA DASTLABKI TERGOV ORGANLARI
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

O‘QUV QO‘LLANMA

Toshkent – 2016

Taqrizchilar:

Toshkent shahar IIBB Tashkiliy-inspektorlik boshqarmasi boshlig‘i
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **A. Sh. Umarxanov**;
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **D. M. Mirazov**

Nizamov S. M.

**N – 61 Yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritish bo‘yicha dastlabki
tergov organlari faoliyatini tashkil etish: O‘quv qo‘llanma. – T.:
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 63 b.**

O‘quv qo‘llanmada mamlakatimiz jinoyat qonunchiligida yarashuv institutining joriy etilishi, uni qo‘llash shartlari va dastlabki tergov organlarining yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritish bo‘yicha faoliyatini tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Yarashuv institutini qo‘llash va uni takomillashtirishga oid tavsiyalar berilgan.

Yuridik oliy ta‘lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari, tadqiqotchilar, tinglovchi-kursantlar hamda surishtiruv, tergov, sud va prokuratura organlari xodimlariga mo‘ljallangan.

BBK 67.99(5U)93ya73

KIRISH

Insonning asosiy huquq va erkinliklari muhofaza qilinishini ta'minlash fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan har qanday davlatning asosiy vazifasi, ajralmas belgisidir. Uning amalga oshirilishi shaxsning huquq-tartibot hamda jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida davlat va uning organlari bilan vujudga keladigan munosabatlarini, inson hayoti uchun juda muhim bo'lgan sohalariga aralashuvlardan saqlanishini ta'minlashga qaratilgan. Bundan tashqari, davlat huquqni muhofaza qilish organlari zimmasiga o'zida mavjud vosita va usullar orqali inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlash vazifasini yuklaydi.

Bugungi kunda sud-huquq tizimini isloh qilish, avvalo, inson manfaatlarini oliy qadriyat sifatida tan olish, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish, mavjud huquqiy normalarni amalga tatbiq etish samaradorligini oshirish hamda qonunlarni erkinlashtirishga qaratilgan. Zero, Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri, bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir»¹.

Bu esa, o'z navbatida, davlatning jinoyatga oid siyosati yo'nalishini sifat jihatidan o'zgartirishni, uni takomillashtirishni anglatadi. Chunki demokratik jamiyatda inson shaxsini huquqiy jihatdan qo'riqlash zarurligi, uning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini esa muhim ijtimoiy boylik sifatida e'tirof etish nazarda tutiladi. Jinoyat qonunining insonni insondan va insonni davlatdan himoya qilishda ifodalangan ijtimoiy, insonparvarlik vazifasi ana shunda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida xalqimizning kechirimlilik, bag'rikenglik, insoniylik kabi azaliy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan jinoiy javobgarlikdan yarashilganligi munosabati bilan ozod qilish instituti mavjud. Mazkur institutning «Jinoiy jazolarning liberalashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat,

¹ *Karimov I. A.* Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T., 2010. – B.15–16.

Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun asosida Jinoyat kodeksiga kiritilishi davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatida muhim qadam bo'ldi.

Ushbu holatlar davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining sifat darajasi oshganligini anglatadi hamda tomonlarning yarashuvi institutining milliy qonunchilik darajasida tartibga solinishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Tomonlar kelishuvi yangicha huquqiy hodisa bo'lishiga qaramay, u chuqur tarixiy ildizga ega, chunki bag'rikenglik va fuqarolar-ning bir-birini tushunishi doimo bizning milliy madaniyatimiz va mentalitetimizga xos bo'lgan.

YARASHUV INSTITUTINING MOHIYATI VA IJTIMOY ZARURATI

Mamlakatimizda yarashuv instituti O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi qonun asosida joriy etildi.

Mazkur institut xalqimizning urf-odatlarini va an‘analaridan kelib chiqib milliy qonunchiligimizda ifoda etilganligi uchun ham bugungi kunda eng samarali qo‘llanilayotgan institutlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Islom Karimov 2010-yil 12-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida ilgari surgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da fikr bildirib, «mazkur institutning samaradorligi hamda o‘zbek xalqining rahmdillik va kechirimlilik kabi ko‘p asrlilik an‘analariga mosligi uning izchillik bilan kengayib borishiga asos bo‘ldi»¹, deb ta‘kidlab o‘tgan edi.

Darhaqiqat, xalqimizga xos bo‘lgan bag‘rikenglik, kechirimlilik kabi insoniy qadriyatlar istiqloq sharofati bilan qonunlarimizda o‘z ifodasini topganligi fuqarolarimizning manfaatlariga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, yarashuv instituti jamiyatda o‘zaro hurmat va hamjihatlik, ahillik va mehr-oqibat muhitini mustahkamlab, yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksalishiga hamda jamiyatimizda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan yangi ziddiyatli holatlarning oldi olinishda muhim omil bo‘lmoqda.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida «bag‘rikenglik» tushunchasiga «masalaga keng ko‘lamda, ochiq ko‘ngillik bilan yondashish», deb ta‘rif berilgan. «Kechirimlilik» esa, «afv etish», «kechirish mumkin» degan mazmunda ifodalanadi.

Albatta, kechira olish, mehr-oqibat ko‘rsatish, kattalarga hurmat, kichiklarni izzat qilish, qarindoshlik, do‘stlik, qo‘shnichilik rishtalarini mustahkamlash xalqimizning azaliy qadriyatlaridandir. Xalqimiz har qanday kelishmovchilikni tinch yo‘l bilan, murosa-yu madora asosida hal etishga odatlangan. Nizolashgan ikki insonni yarashtirish ana shunday xayrli amallardandir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov

¹ *Karimov I. A.* Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. – T., 2011. – B. 360.

ta'бири bilan aytganda, «O'zbekiston – yagona oila. Maqsad ham, unga erishish yo'li ham aniq. Ana shu yo'lda jipslashmoq uchun o'zaro mehr-oqibatli, o'zaro kechirimli bo'lish kerak»¹.

Yarashuv instituti shaxsning jamiyatda tutgan mavqeini saqlab qolish, oilasidagi muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik va javobgarlikka tortilishi natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Agar buning aksi bo'lsa, oila muhitiga darz ketishi, farzandlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasavvur qilish qiyin emas. Shu nuqtai nazardan, yarashuv institutining joriy etilishi odamlar, ayniqsa, qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar o'rtasida kelib chiqadigan kelishmovchilikni murosa-yu madora yo'li bilan hal etishda muhim vosita bo'lmoqda. Bu esa qonunlarimizdagi odillik va insonparvarlik tamoyillari ustuvorligining yaqqol namunasidir.

Aytish joizki, yarashuv instituti odil sudlovni tiklash nuqtai nazaridan muhim amaliy xususiyatiga egaligi hamda xalqimizning mentalitetiga to'la-to'kis mos kelishi sababli mazkur institutning qo'llanilish doirasi muntazam ravishda kengayib bormoqda. Bugunga kelib, amaldagi Jinoyat kodeksining 66¹-moddasiga muvofiq, 60 ta jinoyat tarkibi bo'yicha yarashuv institutini qo'llash imkoniyati vujudga keldi. O'ylaymizki, kelajakda yarashuv institutini qo'llash doirasi yanada kengayib boraveradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jinoyat-protsessual munosabatlarda yarashuv institutining qo'llanilishi natijasida jinoiy javobgarlikdan ozod bo'lgan shaxslar soni ham yildan-yilga o'sib bormoqda. Yarashuv institutining amaldagi qonunlarda o'z ifodasini topganligiga ko'p vaqt bo'lmasada, o'tgan qisqa davr ichida 163 mingga yaqin shaxs mazkur insonparvarlik tamoyilidan bahramand bo'ldi. Qolaversa, yarashuv instituti jamiyatda sudlangan shaxslar sonini kamaytiribgina qolmay, uning uzoq davom etadigan, hatto avlodlar taqdiriga ham salbiy ta'sir o'tkazadigan oqibatlarning oldini olish imkonini beradi. Zero, aybga iqror bo'lishni rag'batlantirayotgan mazkur huquqiy institut ortiqcha sud-tergov harakatlari va u bilan bog'liq xarajatlarga barham berib, jarayonni tezlashtirish va soddalashtirish sari keng yo'llar ochmoqda.

Jinoyat kodeksining 66¹-moddasiga muvofiq, jinoyatni nafaqat birinchi marta sodir etgan shaxslar, balki muqaddam ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganligi uchun sudlangan shaxslarga nisbatan, hatto ularning sudlangan holati bekor qilinmay turib ham, yarashuv institutini qo'llash mumkin.

E'tiborli tomoni shundaki, bugungi kunga kelib, amaldagi qonunlarimizda og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik

¹ Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. – Т., 1996. – Б. 207.

holati tugallangan yoki sudlanganligi olib tashlangan shaxslar ham, agar jabrlanuvchi bilan yarashsa, jinoiy javobgarlikdan ozod bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Amaldagi jinoyat va jinoyat-protsessual qonun normalariga muvofiq, yarashuv institutini qo'llash uchun quyidagi shartlar bajarilgan bo'lishi lozim:

1) sodir etilgan jinoiy qilmish Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida qayd etilgan bo'lishi;

2) jinoyat sodir etgan shaxsning, ya'ni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining aybiga iqror bo'lganligi;

3) jabrlanuvchiga yetkazilgan zararining bartaraf qilganligi;

4) jabrlanuvchi bilan gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ni yarashganligi, ya'ni jabrlanuvchining kechirganligi.

Binobarin, yarashuv instituti jabrlanuvchi tomonidan faqatgina kechirish emas, balki jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan uning dastlabki bildirgan talab va da'volaridan voz kechishi hamdir. Bu holat jabrlanuvchining arizasi bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishi tugatilishini anglatadi.

Yarashuv fakti protsessual tartibda rasmiylashtirilib, u aybdor shaxs, jabrlanuvchi va vakolatli shaxs tomonidan imzolangan va tasdiqlanganda rasmiylashtiriladi.

Yarashuv to'g'risidagi ariza jabrlanuvchi yoxud uning qonuniy vakili tomonidan surishtiruv va dastlabki tergov, shuningdek, sud muhokamasining istalgan bosqichida, lekin sud maslahatxonaga kirishidan oldin berilishi mumkin.

Arizada yetkazilgan zarar bartaraf etilgani va yarashganlik munosabati bilan jinoyat ishi yuritilishini tugatish to'g'risida iltimos ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bunday ariza sud muhokamasi o'tkazilayotganda berilsa, sud uni darhol ko'rib chiqishga kirishishi lozim. Agar ish bo'yicha bir necha jabrlanuvchi bo'lsa, barcha jabrlanuvchilar bilan yarashuvga erishilgandagina yarashuv to'g'risida gap bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan sud-huquq islohotlaridan ko'zlangan maqsad faqat jabrlanuvchi bilan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchilarni yarashganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatishgina bo'lib qolmay, balki jinoyat sodir etgan shaxslarning keyingi taqdiri, ularning ijtimoiy hayotga ko'nikishi, xulq-atvori kabi muammolarni hal etish masalalarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Shuning uchun jamiyatda mazkur institutning qo'llanilishini yanada kengroq targ'ib qilish, yoshlarga mazkur institutning huquqiy asoslari hamda tartibini o'rgatishga alohida ahamiyat berish, ularning mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ularda odamiylikni mustahkamlash davr talabidir.

YARASHUV TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISH TARTIBINING VUJUDGA KELISHI VA AHAMIYATI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2001-yil 29-avgustda «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoiyat, Jinoiyat-protsessual kodekslari hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni¹ qabul qilinganidan so‘ng jinoiyat protsessi sohasida yangi institut – yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish tartibi joriy etildi.

Aytish kerakki, ushbu qonunni qabul qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – jinoiyat bo‘yicha ishlar yakunini samarali hal qilish uchun yarashuv institutini takomillashtirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining mantiqiy davomi sifatida jinoiyat ishlari bo‘yicha sud ishini yuritishni yanada liberallashtirishdan iborat. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutini qo‘llash doirasini yanada kengaytirish nazarda tutilgan.

Yarashuv institutining joriy etilishi jinoiyat va jinoiyat-protsessual qonunchilikni liberallashtirishda muhim bosqich bo‘lib, mazkur huquqiy institut jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlaridan biri sifatida, jinoiyat sodir etgan shaxsning aybdorligi masalasini hal etmay turib, qator jinoiyat ishlarini tugatish uchun asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma‘ruzasida yarashuv instituti haqida gapirib, jumladan quyidagilarni ta‘kidlaydi: «Jabrlanuvchi bilan yarashuv» to‘g‘risidagi alohida toifadagi ishlarni yuritish tartibining joriy etilishi jinoiyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirishda muhim qadam bo‘ladi. Xo‘sh, bu yerda gap nima haqda bormoqda? Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoiyat sodir etgan shaxs, agar muqaddam sudlanmagan bo‘lsa, o‘z aybini bo‘yniga olsa, jinoiyat oqibatida keltirilgan zararni to‘lasa, jabrlanuvchi bilan yarashsa, sud ishni harakatdan to‘xtatadi. Bu holatda jinoiyat sodir etgan shaxs sudlangan deb hisoblanmaydi. Muhimi, dastlabki tergov ishlarini olib borish va ishni sudda ko‘rish uchun sarflanadigan muddatlar qisqaradi. U uzog‘i bilan uch haftagacha cho‘zilishi mumkin»².

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – № 9–10. – 165-м.

² Каримов И. А. Адолат – қонун устуворлигида // Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. – Т., 2002. – Б.44.

Yarashuv institutini qo‘llashning ko‘lami va samaradorligi yildan yilga oshib bormoqda. Bu uning xalqimiz milliy mentalitetidan kelib chiqib joriy etilgan institut ekanligidan dalolatdir. Zero, xalqimizning kechirimliligi, bag‘rikengligi jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilgan. Qolaversa, har qanday vaziyatda murosas-yu madora yo‘lini tanlab ish tutish, imkon boricha ikkitomonlama o‘zaro kelishuvga erishish xalqimizga xos xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, «yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritish jinoyatdan jabrlangan shaxs hamda jinoiy qilmishni birinchi marta sodir etgan aybdor shaxs (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi) o‘rtasida jabrlanuvchi-ning jinoyatgacha bo‘lgan maqomini to‘liq tiklash va jinoyat tufayli yetkazilgan zararni bartaraf etish to‘g‘risida ahdlashuvga kelish orqali jinoyat ishini tugatish turlaridan biridir»¹.

Demak, yuqorida qayd etilgan fikrlarni inobatga olib aytish mumkin-ki, yarashuv institutining joriy etilganligi nafaqat insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish g‘oyasiga, balki xalqimizning mentalitetiga, dunyoqarashiga ham har tomonlama mos keladi. Chunki milliy an‘analari-miz ruhida tarbiyalangan ko‘pgina fuqarolarimizga sodir etgan jinoyati uchun so‘roq yoki tergov ishlari boshlanishining o‘ziyoq tegishli xulosa chiqarib olish va qonunni boshqa buzmaslik uchun ko‘p hollarda kifoya bo‘ladi. Bunday shaxslar tomonidan Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar sodir etilgan hollarda, agar ular qilgan qilmish-lariga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jabrlanuvchi bilan yarashib, yetkazilgan moddiy va ma‘naviy zararni qoplasalar (yoki jabrlanuvchi zarardan voz kechsa), ularni javobgarlikka tortishga hech qanday zarurat yo‘q.

Shuni qayd etish lozimki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari tufayli uzoq vaqt mobaynida jazolash va repressiya vositasi bo‘lgan sudlov jarayoni jinoyat protsessi institutini davlatning muhofaza vositasiga aylantirishga qaratildi. Bu, hech shubhasiz, muayyan fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklash vazifasi birinchi o‘ringa chiqqanidan dalolat beradi. Aynan shu maqsadda, «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi-ga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respubli-kasi qonuniga muvofiq, 2001-yilda jinoyat protsessiga yarashuv instituti kiritildi. Dastlab Qonunda mazkur institutni ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan 27 ta jinoyat tarkibi bo‘yicha qo‘llash imkoniyati nazarda tutildi.

¹ Ўзбекистон Республикасининг жиноят процесси: Дарслик / Б. А. Миренский, А. Х. Рақмонкулов, Ж. Камалходжаев, В. В. Қодирова. – Т., 2004. – Б.507.

O‘z navbatida, jinoyat protsessual qonunchilikda ham ushbu moddani qo‘llash tartibi belgilab qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi «Yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish» deb nomlangan 62-bob bilan to‘ldirildi. Ushbu bobda yarashuv to‘g‘risidagi arizaning jabrlanuvchi (fuqaroviy da‘vogar) yoxud uning qonuniy vakili tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovning, shuningdek sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud maslahatxonaga kirishidan oldin berilishi mumkinligi, arizada yetkazilgan ziyon bartaraf etilgani, shuningdek yarashilganligi munosabati bilan jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritilishini tugatish to‘g‘risidagi iltimos ko‘rsatilgan bo‘lishi shartligi, agar yarashuv to‘g‘risidagi ariza ish birinchi instansiya sudida sud muhokamasidan o‘tkazilayotganda berilgan bo‘lsa, sud uni darhol ko‘rib chiqishga kirishishi lozimligi, ish bo‘yicha bir necha jabrlanuvchi bo‘lgan hollarda faqat barcha jabrlanuvchilar bilan yarashuvga erishilgan taqdirda yarashuv to‘g‘risidagi ishni yuritish mumkinligi, arizani qabul qilish paytida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ish bo‘yicha ish yuritishni qayta tiklash to‘g‘risida iltimosnoma berish huquqini yo‘qotishini tushuntirishi shartligi belgilab qo‘yildi. Shuningdek, yarashuv instituti qo‘llanilishi nazarda tutilayotgan jinoyat ishini sudga yuborish tartibi, ushbu jinoyat ishining sud muhokamasi hamda sud ajrimini tuzish qoidalari bayon etildi.

Albatta, yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish sud qonunchiligimizda yangi joriy etilgan institut bo‘lib, dastlabki yillarda ushbu qonunni qo‘llashda xato va kamchiliklar, ayrim muammolar kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Masalan, ayrim hollarda jabrlanuvchi gumon qilinuvchining qarindoshi, hamkasbi yoki boshqa bir yaqin kishisi bo‘lishi va u zarardan voz kechishi mumkin. Bunday holatda jabrlanuvchiga yetkazilgan zararning qoplanishi lozimligi haqidagi shart o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi. Yuqoridagi hamda yarashuv instituti bilan bog‘liq boshqa holatlarda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan harakatlarni sudlarga tushuntirish lozimligidan kelib chiqqan holda, sud amaliyotida mazkur huquqiy institutning bir xilda qo‘llanilishi va qonun talablariga to‘liq rioya etilishini ta‘minlash maqsadida, 2002-yil 25-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida»gi qarori qabul qilindi¹.

Shuni qayd etish lozimki, o‘tgan yillar davomida mamlakatimizda yarashuv institutini qo‘llash mumkin bo‘lgan jinoyat tarkiblari doirasi tadarriy ravishda kengaytirilib borildi. 2001-yilda bunday jinoyat tarkiblari

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. – 1991–2006. 2-жилд. – Т., 2007. – Б.126.

soni 27 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2004-yil 27-avgust¹ va 2005-yil 31-dekabr² qonunlari bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkin bo'lgan jinoyat tarkiblari soni 42 tagacha ko'paytirildi. O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 3 apreldagi qonuni³ bilan Jinoyat kodeksining 66¹-moddasidagi jinoyatlar ro'yxati 11 ta jinoyat tarkibni nazarda tutuvchi 9 ta modda bilan, O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 29-dekabrda qonuni⁴ bilan 66¹-moddadagi jinoyatlar ro'yxati 7 ta jinoyat tarkibni nazarda tutuvchi 4 ta modda bilan to'ldirildi.

Shunday qilib, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi JKning 66¹-moddasi yarashuv instituti qo'llanilishi mumkin bo'lgan 60 ta jinoyat tarkibini nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksining 44 ta moddasini o'z ichiga oladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yarashuv instituti jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligimizda yangilik bo'lib, quyidagilarni nazarda tutadi: birinchidan, u odil sudlovning huquqni tiklashga asoslangan shakli bo'lib, uning vositasida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan ishlar tezkorlik bilan samarali hal qilinishi mumkin, ikkinchidan, mazkur institut jabrlanuvchilarning huquqlarini yanada to'liqroq va samaraliroq himoya qilish imkonini yaratadi.

Mazkur institutning afzalligi shu bilan belgilanadiki, yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritishni tartibga soluvchi normalar ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoiy qilmishni sodir etgan, shuningdek moddiy yoki ma'naviy zararni to'liq qoplagan shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilmasligi uchun imkoniyat yaratadi.

Odil sudlov jazolovchi xususiyatga ega bo'lgan va kam ahamiyatli jinoyatlar uchun ham ozodlikdan mahrum qilish joylariga uzoq muddatga tushish mumkin bo'lgan totalitar-buyruqbozlik tizimi hukm surgan davrdan farqli o'laroq, yarashuv instituti mustaqillik va insonparvar demokratik davlat qurish jarayonida joriy etilgan alohida institutlardan biri sifatida, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish imkonini beradi va bu sudlanganlikni keltirib chiqarmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «qonunchilikda odil sudlovni amalga oshirish shakllaridan biri – yarashuv institutining joriy etilishi qonuniylikni mustahkamlashda ijobiy omil bo'ldi»⁵.

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2004. – № 37. – 408-м.

² Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2005. – №43. – 518-м.

³ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2009. – №15. – 171-м.

⁴ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2013. – №1. – 1-м.

⁵ Каримов И. А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир // Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т., 2005. – Б. 186.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga yarashilganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi normaning kiritilishi bilan jinoyat sodir etib, o'z qilmishidan pushaymon bo'lgan shaxslarning javobgarligi masalalarini ijobiy hal qilish imkoniyatlari yaratildi. Xususan, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxsning ham, jinoyat sodir etgan shaxsning ham manfaatlarini himoya qilishga keng yo'l berildi.

Yarashtirish jabrlanganga nafaqat ma'naviy, iqtisodiy foyda keltiradi, balki jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi, ya'ni: yarashuv jamiyatda tinch-totuvlikni ta'minlaydi, zo'ravonlik va shafqatsizlik kamayishiga olib keladi; qonunbuzarliklarning oldini olishda fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan o'zini o'z boshqarish organlari rolini oshiradi; huquq-tartibot xodimlari uchun budjetdan ajratiladigan xarajatlarning sezilarli kamayishiga olib keladi.

Xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligi va jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyotining tahlili odil sudlovning an'anaviy shakllari o'rniga ushbu jarayonning o'rnini bosadigan boshqa yangi huquqiy institutlar: mediatsiya, yarashuv, muzokaralar, arbitraj, miniprotsess kabilar vujudga kelganligini ko'rsatadi. Mediatsiyaning kiritilishi Yevropa Kengashi va BMTning bir qator hujjatlarida tavsiya etilgan, uning nazariy modellari Bolgariyada ishlab chiqilgan. Ammo shuni aytish joizki, Bolgariyada yarashuv instituti haligacha nazariy shaklda bo'lib, jinoyat-protsessual qonunchiligiga kiritilmagan, faqat prokuror va himoyachi o'rtasidagi kelishuv instituti joriy etilgan, xolos. Uning asosiy kamchiligi jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs bu institut bo'yicha biror-bir tashabbus bilan chiqish huquqiga ega emas. Shu bilan birga, mazkur kelishuvni faqat prokurorning tashabbusiga ko'ra amalga oshirish mumkin.

Jinoyat ishlarini hal etishning yarashtiruv shakli uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etish bilan bog'liq, davlat (ayblovchi yoki jabrlanuvchi sifatida) va jinoyat sodir etgan shaxs yoki uning vakili – himoyachisi o'rtasida o'zaro kelishuv asosida amalga oshiriladigan jarayondir. Keyinchalik bu jarayon sudya tomonidan qonunlashtiriladi. Rasmiy sudlovdan tashqari, ziddiyatlarni hal qilishning yarashtiruv shakli quyidagi o'ziga xos jihatlarga ega: yarashuv instituti faqat uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni ko'rishda tatbiq etiladi; yarashuvga ayblov va himoyaning o'zaro kelishuvi, yarashish holatlarida yo'l qo'yiladi; yarashuv jarayoni amaldagi qonunchilikka zid bo'lmasligi hamda ishning hal qilinishi sudya tomonidan amalga oshirilishi shart.

Tomonlarning yarashganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish uchun to'rtta shartning mavjud bo'lishi talab qilinadi:

1. Eng asosiy talab – jabrlanuvchining jinoyat sodir etgan shaxs bilan yarashganligi. Yarashuv to‘g‘risidagi kelishuv surishtiruv, tergov organlari yoki sudga jabrlanuvchi tomonidan taqdim etilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi bilan yarashganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatish to‘g‘risidagi ariza asosida rasmiylashtiriladi yoki jabrlanuvchining arizasi asosida qo‘zg‘atilgan jinoyat ishini tugatish to‘g‘risidagi mazmunga ega bo‘ladi.

2. Og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi.

3. Aybdor shaxs aybiga iqror bo‘lishi va yarashuvga rozilik bildirishi shart.

4. Shu bilan birga, yarashganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etish uchun aybdor tomonidan jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy, ma’naviy va mulkiy zarar to‘la qoplangan bo‘lishi kerak.

Shuni ham aytish joizki, Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida keltirilgan yarashuv mexanizmining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uni amalga oshirishda tergov organlari va sud tomonlarning xohish-irodasidan kelib chiqqan holda harakatlanishida namoyon bo‘ladi.

Sud-tergov amaliyotini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, jabrlanuvchilar avvalo yetkazilgan zararning moddiy shaklda qoplanishidan manfaatdor bo‘ladilar. Tergovchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari ham shundan dalolat beradi. Ularning fikricha, jabrlanuvchilarning 46 foizi o‘g‘irlangan mol-mulkning qaytarilishi, 13,5 foiz shunga o‘xshash yoki bir xil qiymatga ega mol-mulkning qaytarilishi, 1,5 foizi esa, vaziyatdan kelib chiqqan holda o‘z moddiy manfaatlarining boshqa yo‘llar bilan qondirilishini afzal ko‘radilar¹.

Ma’lumki, yarashuv deganda, jabrlanuvchining aybdorni kechirishi emas, balki o‘zining dastlabki talab va da’volaridan rasmiy ravishda voz kechishi tushuniladi. Yarashuv akti jinoyat-protsessual qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi². Jabrlanuvchi bilan yarashuv aybdor aybiga iqror bo‘lmasdan avval ro‘y berishi mumkin emas.

«Tomonlar o‘rtasidagi yarashuv o‘z xohishlarini erkin bildirishlarida namoyon bo‘lishi lozim. Shuning uchun har gal qonunni qo‘llovchi shaxs jabrlanuvchining yarashuvga majburan, ya’ni jinoyat sodir etgan shaxs yoki uning yaqinlari tomonidan qo‘rqitish, tahdid qilish va hokazolar oqibatida rozi bo‘lmaganligini tekshirishi kerak».

¹ Низамов С. М. Ярашув институти жиноий жавобгарликдан озод қилиш шакли сифатида // Ҳуқуқ ва бурч. – 2009. – №12. – Б.47

² Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 25 октябрдаги «Ярашув тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги қарори.

Jabrlanuvchining jinoyat sodir etgan shaxs bilan yarashish motivlari turli xil bo'lishi mumkin: aybdorning jinoyat sodir etgandan keyingi xulqi, jumladan, yetkazilgan zararni qoplaganligi tufayli kechirishi, rahmi keliishi, do'stlik, hamkorlik va hokazo. Ayrim hollarda aybdorning yarashuvni taklif etish motivi sodir etgan qilmishi uchun jinoiy ta'qibdan qutilish, jazodan qo'rqishi, jinoyat ishtirokchisiga aylanib qolishni istamasligi, sudlanganlik maqomiga ega bo'lishdan xavfsirashi va hokazo bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, yarashuv tashabbusi har ikki tarafdin ham chiqishi mumkin hamda ikkala tomon ham rozi bo'lgan, shuningdek, ixtiyoriy tuzilgan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar (dastlabki tergovda tergovchi yoki prokuror, sud majlisida sudya) tomonidan qabul qilinadi.

Sud jinoyat ishi hujjatlari va jabrlanuvchining sudga taqdim etgan yarashuv to'g'risidagi arizasi bilan tanishib, tuman prokurorining xulosalarini eshitib, yarashuv ixtiyoriyligini, jabrlanuvchining da'vosi yo'qligini, ular yarashuvga rozi ekanliklarini inobatga olib, jinoyat ishini tomonlar yarashuvi munosabati bilan harakatdan tugatish haqida ajrim chiqaradi.

Ish bo'yicha bitta aybdor va bir necha jabrlanuvchi bo'lgan holatlar ham uchray turadi. Bunday holatda jabrlanuvchilarning birortasidan tegishli ariza bo'lmasa, yarashuv to'g'risida ish yuritish mumkin emas, bunday vaziyatda ish yuritish umumiy asoslarda olib boriladi.

Ayni vaqtda, ish bo'yicha bitta jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogari) va bir nechta gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchilar bo'lgan taqdirda jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogari) ularning ayrimlari bilan yarashishi mumkin. Bunday holatda jinoyat ishining jabrlanuvchi bilan (fuqaroviy da'vogari) yarashuvga kelishgan gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchilarga oid qismi alohida ish yurituvga ajratilib, Jinoyat-protsessual kodeksining 584-moddasi tartibida sudga yuboriladi, qolganlarga doir qismi bo'yicha esa, ish yuritish umumiy asoslarda olib boriladi¹.

Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud muhokamasi jinoyat ishi sudga kelib tushgan paytdan e'tiboran o'n sutkadan kechiktirmay o'tkaziladi. Yarashuv to'g'risidagi ariza sud majlisida berilganda, masala darhol hal etilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorida belgilanganidek, «yarashuv – jabrlanuvchining afv etishinigina emas, balki uning dastlabki talab va da'volaridan rasmiy ravishda voz kechishini anglatadi. U jinoyat sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish to'g'ri-

¹ *Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шархлар: Умумий қисм. – Т., 2006. – Б.854.*

sidagi iltimosidan voz kechish (agar yarashuv jinoiy ish qo'zg'atilishidan avval yuz bergan bo'lsa) yoki uning arizasiga ko'ra qo'zg'atilgan jinoyat ishini tugatishni so'rab bergan arizadan iborat bo'ladi»¹.

Jinoyat kodeksi yarashganlik tufayli javobgarlikdan ozod qilishni majburiyat sifatida emas, balki ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladigan huquq sifatida belgilaydi. Boshqacha aytganda, yarashuv tomonlarning erkin irodasiga ko'ra tuzilgan bitimdir. U aybdorni afv etib, qilmishi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishini istamaslikda namoyon bo'ladi. O'z navbatida, aybdor shaxsdan o'z aybini tan olib, yetkazilgan zararni qoplash talab etiladi.

Yarashuv to'g'risidagi ariza surishtiruv va dastlabki tergovning istalgan bosqichida, ya'ni shaxs gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan paytdan boshlab, jinoyat ishini ko'rib chiqayotgan birinchi instansiya sudi maslahatxonaga kirgunga qadar berilishi mumkinligi qonunda nazarda tutilgan. Surishtiruvchi, tergovchi yoki sudya yarashish to'g'risidagi arizani qabul qilish vaqtida jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakiliga, agar sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ish bo'yicha ish yuritishni qayta tiklash to'g'risida iltimosnoma berish huquqini yo'qotishini tushuntiradi.

Qonunda yarashuv to'g'risidagi arizaning shakli, mazmuni va uni berish tartibiga oid muayyan talablar mavjud. Yarashuv to'g'risidagi ariza har doim yozma shaklda taqdim etilib, unda yetkazilgan zarar qoplanganligi va yarashuv tufayli jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimos ko'rsatilgan bo'lishi shart. Yarashuv to'g'risidagi ish yuritish masalasini qo'zg'atish huquqiga ega bo'lgan yagona subyekt jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakili hisoblanadi va u qonunda belgilangan tartibda tan olinishi kerak. Ayni vaqtda, jabrlanuvchi fuqaroviy da'vogar hisoblanmagan hollarda yarashuv to'g'risidagi ish yuritishni boshlash uchun ham jabrlanuvchi, ham fuqaroviy da'vogar tomonidan tegishli ariza berilgan bo'lishi shart. Ish bo'yicha bir nechta jabrlanuvchi bo'lgan holatlar uchun ham qonunda aynan shunday talablar belgilangan. Chunonchi, ularning hatto bittasidan tegishli ariza bo'lmagan taqdirda ham yarashuv to'g'risida ish yuritish mumkin emas. Bunday hollarda jinoyat ishi bo'yicha ish yuritish umumiy asoslarda olib boriladi².

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida qayd etilganidek, yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha surishtiruvchi, tergovchi, pro-

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 25 октябрдаги «Ярашув тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги қарори. – Т., 2002. – Б.11.

² Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами (1991–2006). Т.2. – Т., 2006. – Б. 127.

kuror va sud zimmasiga qonun bilan yuklatilgan majburiyat – yarashuv sud tomonidan tasdiqlangandan keyin kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarining jabrlanuvchiga tushuntirilishi shartligi. Qonunning ushbu talabiga rioya etmaslik yarashuv to‘g‘risidagi qarorning noqonuniy deb topilishiga olib keladi. Shu bilan birga, sudlar nazarda tutishlari kerakki, jabrlanuvchi faqat birinchi instansiya sudi maslahatxonasiga kirgunga qadar ayblanuvchi bilan yarashishdan voz kechishga haqli. Yarashuv to‘g‘risidagi qonun normalari qo‘llanilishining tezkorligi va kafolatlanishini ta‘minlash, ayblanuvchining huquqlarini muhofaza etish maqsadida, yarashuv to‘g‘risidagi ish bo‘yicha qaror chiqarish va surishtiruv yoki tergov organi tomonidan sudga yuborish uchun qonunda o‘n kunlik muddat belgilangan. Yarashuv munosabati bilan jinoyat ishini tugatish masalasi bunday ish sudga kelib tushgan vaqtdan boshlab, yarashuv to‘g‘risidagi ariza sud majlisida berilgan hollarda esa, ariza berish vaqtdan boshlab, o‘n kun ichida hal etilishi kerak. Sudlar surishtiruv yoki tergov organlari tomonidan ishni sudga yuborish muddatlari buzilishiga nisbatan murosasiz bo‘lishlari va buning oldini olish maqsadida xususiy ajrimlar chiqarishlari lozim¹.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами (1991–2006). Т.2. – Т., 2006. – Б. 127–129.

YARASHUV TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISHNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI

Yarashuv institutining joriy etilishi jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni liberallashtirishda muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur huquqiy institut jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlaridan biri sifatida jinoyat sodir etgan shaxsning aybdorligi masalasini hal etmay turib qator jinoyat ishlarini tugatish uchun asos bo‘ladi.

Huquqshunos olimi Z. F. Inog‘omjonova ta’kidlaganidek, «yarashuv institutining yana bir ahamiyati shundaki, jinoyat ishi soddalashtirilgan tartibda qisqa muddatlarda dastlabki tergovdan o‘tkaziladi, so‘ng sudda mazmunan ko‘rib, shu bosqichda qonuniy nihoyasini topadi, natijada ortiqcha sansalorlik barham topadi. Eng asosiysi, inson taqdiriga sudlanganlik tamg‘asi bosilmaydi»¹. Xuddi shunday fikr B. X. Po‘latov tomonidan ham qayd etilgan. Darhaqiqat, jinoyat ishini yuritish tartibini soddalashtirish, ortiqcha sansalorliklarga barham berish mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlari markazidagi asosiy masala hisoblanadi. Yarashuv institutining qo‘llanilishi esa amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining maqsadlariga hamohang ekanligini anglatadi.

Shuningdek, mazkur masala yuzasidan F. Taxirov ham fikr bildirib, «jabrlanuvchi bilan yarashuv to‘g‘risidagi alohida toifadagi ishlarni Jinoyat kodeksida belgilanishi va ushbu toifadagi ishlarni yuritish tartibi joriy etilishi hamda yarashgan ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning umuman sudlanmagan shaxs mavqeiga ega bo‘lishi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodeksida katta huquqiy yutuqqa aylanishi bilan bir qatorda adashib yoki ayrim sabablarga ko‘ra jinoyat sodir etgan shaxsning tuzalish yo‘liga o‘tishiga, bu xatoni boshqa takrorlamaslikka imkon yaratdi»², deydi.

Yarashuvning afzal tomonlari xususida Q. P. Payzullayev ham fikr bildirib, quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi: *birinchidan*, u jabrlanuvchi va huquqbuzar o‘rtasidagi nizoni jinoiy jazo choralarini qo‘llamasdan hal qilish, zararning tez va to‘liq qoplanishini ta’minlash, qayta jinoyat sodir etishning oldini olish hamda aybdorni jamiyatdan ajratmasdan turib

¹ *Иногомжонова З.Ф.* Жиноят процессуал қонунини либераллаштириш – давр талаби // Суд-ҳуқуқ ислоҳоти: назария ва амалиёт: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2001. – Б.62.

² *Тахиров Ф.* Демократик жамиятимизда ярашув институтининг роли//Ярашувчилик институтини такомиллаштириш: назария ва амалиёт: Давра суҳбати матер-лари. – Т.,2005. –Б.29–30.

tuzatishdan iborat; *ikkinchidan*, u bevosita zararni qoplash orqali nizoning tezda hal etilishiga ta'sir qiladi, moddiy yoki ma'naviy qoplanishini ortiqcha qog'ozbozliksiz amalga oshirilishini ta'minlaydi va kechirish imkoniyatini beradi; *uchinchidan*, yarashtiruv instituti bevosita jamiyat va odil sudlov uchun foydali, jamiyat a'zolarini huquqiy tarbiyalashda yordam beradi, fuqarolarga jinoyatlardan himoyalanganlik va xavfsizligi ta'minlanganlik hissini mustahkamlaydi; *to'rtinchidan*, retsidiv jinoyatchilikning kamayishiga sabab bo'ladi, odil sudlov idoralarini ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat ishlarini ko'rib chiqishdan ozod qiladi, mablag' va vaqtni tejaydi hamda jinoiy jazoni ijro etish muassasalarida ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilashga xizmat qiladi¹. Albatta, Q. P. Payzullayev mazkur to'rtta belgi orqali yarashuv instituti-ning afzalliklarini yoritishga harakat qilgan. Ammo, bu institutning boshqa afzal jihatlari ham to'xtalish lozim. Xususan, D. Kamalxodjayev bu to'g'rida shunday fikr bildiradi: yarashuv instituti quyidagi ijtimoiy va huquqiy qulayliklarga ega: yarashuvni ham dastlabki tergov, ham sud muhokamasi davrida qo'llash mumkin; ziddiyatli vaziyatlarda taraflarning bir-biriga nisbatan qarama-qarshilik (dushmanlik) holatini eng qisqa yo'l orqali yumshatish; sudning eng asosiy funksiyasi – ijtimoiy osoyishtalik (tinchlantirish)ni ta'minlash; ayblanuvchining arizasida jinoyat sodir etganligiga to'liq iqror bo'lishi; ayblanuvchi (sudlanuvchi)ga nisbatan ta'sir choralarini tez va muqarrar ravishda qo'llanishiga ko'mak berishi; surishtiruv idoralari va dastlabki tergov organlarini yangi dalillarni qidirishdan xolos qilishi va murakkabroq bo'lgan jinoyat ishlarini ko'rish uchun qulay sharoitlar yaratilishi va huquqni muhofaza qilish organlarining e'tibori og'ir jinoyatlarni ochishga qaratilishi². Shuningdek, yarashuv institutiga O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida ham amaldagi qonun hujjatlari-da ham ta'riflar keltirilgan³.

Demak, yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, yarashuv instituti jabrlanuvchilarning huquqlarini ishonchli himoya qilishga, sudlanganlik holatini kamaytirishga, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish prinsiplarining kengroq qo'llanishiga imkon yaratadi.

¹ Qarang: *Пайзуллаев Қ. П. Ярашув битими жиноий жавобгарликдан озод қилишнинг асоси сифатида // Ярашувчилик институтини такомиллаштириш: назария ва амалиёт: Давра суҳбати материаллари. – Т., 2005. – Б. 35.*

² Qarang: *Камалходжаев Д. Понятие и сущность примирительной форм разбирательства уголовных дел // Хуқуқ – Право – Law. – 2001. – № 4. – С.57.*

³ Qarang: *Ўзбекистон юридик энциклопедияси / Нашр учун масъул Р.А.Мухитдинов ва бошқ. – Т., 2010. – Б. 571–572.*

O. Gʻ. Zokirova va Sh. Y. Abduqodirovlar yarashuv institutining boshqa jihatiga ham eʼtibor qaratadilar. Ularning fikricha, «yarashuvchilik – bu faqatgina jabrlanuvchining kechirishi emas, balki jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jabrlanuvchining dastlabki bildirilgan talab va daʼvolaridan voz kechish ham demakdir, bu holat jabrlanuvchining arizasi bilan qoʻzgʻatilgan jinoyat ishini toʻxtatish demakdir. Yarashuvchilik fakti protsessual tartibda rasmiylashtirilib, u aybdor shaxs, jabrlanuvchi va vakolatli shaxs tomonidan imzolangan va tasdiqlangan holda rasmiylashtiriladi». S. Raxmanova bu institut haqda shunday yozadi: «Yarashuv – jinoyat oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan faoliyat». Unda ayblanuvchi va jabrlanuvchining hamkorligida boʻlib oʻtgan voqea, uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar va jabrlanuvchi uchun oqibatlari yuzasidan oʻzaro kelishuvga erishiladi, yetkazilgan zararni qoplash shartlari ishlab chiqiladi va ijro etiladi, shuningdek, jinoiy vaziyatning yuzaga kelishiga turtki boʻlgan ishtirokchilarning xulq-atvorini oʻzgartirish boʻyicha rejalar ishlab chiqiladi»¹. Shuningdek, I. Narziyev «yarashuv – sodir etilgan jinoyat natijalarini bartaraf etishga qaratilgan protsessual faoliyat yoʻnalishi. Uning natijasida ayblanuvchi va jabrlanuvchi oʻrtasida: sodir etilgan jinoyat toʻgʻrisida oʻzaro tushunmovchilik hal etiladi; moddiy zararni qoplash boʻyicha kelishuvga erishiladi va u ijro etiladi; jinoiy holatni vujudga keltirgan ishtirokchilarning axloq-odobini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar koʻrishga erishiladi»², deb taʼkidlaydi.

Ayni paytda, Gʻ. Abdumajidov taʼkidlaganidek, «yarashuv toʻgʻrisidagi ishlarni yuritish yangi protsessual institut sifatida samarali ekanini oqladi va liberallashtirish yoʻnalishida muhim rol oʻynamoqda. Uni yanada kengroq qoʻllanilishiga qaratilgan takliflarga quloq solib, yarashuv munosabati bilan tugatilishi mumkin boʻlgan jinoyat ishlarining toifasini yanada kengaytirish va baʼzi hollarda jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar toʻlanmagan boʻlsa-da, jabrlanuvchining roziligi bilan jinoyat ishini tugatishga yoʻl qoʻyish maqsadga muvofiq»³.

Yuridik adabiyotlarda yarashuv instituti toʻgʻrisida bevosita jinoyat ishlari yurituvida bu jarayonga notariusni qoʻshib, yarashuv haqidagi arizani jabrlanuvchi va gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi

¹ *Рохманова С.Р.* Программа примирения в уголовном процессе Российской Федерации // Ярашувчилик институтини такомиллаштириш: назария ва амалиёт: Давра суҳбати материаллари. – Т., 2005. – С. 55.

² *Нарзиев И.* Жиноят процессида ярашув: мазмун ва моҳият // Ярашувчилик институтини такомиллаштириш: назария ва амалиёт: Давра суҳбати материаллари. – Т., 2005. – Б. 103.

³ Ўзбекистон Республикаси жиноят-процессуал қонунчилиги: кеча, бугун ва истикболлари. – Т., 2010. – Б.14.

o'rtasida yarashuv shartnomasini kiritish bilan bog'liq takliflar mavjud¹. Bu holatda jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan shaxslarning maqomi qanday bo'ladi, degan savol tug'iladi.

A. A. Shomansurovning tadqiqotlariga ko'ra, «Yevropa davlatlaridan Avstriya, Belgiya, Fransiya, Germaniya, Finlyandiya kabi davlatlarda bunday normalarni qo'llash amaliyoti an'anaviy tus olgan va ko'pchilik hollarda yarashish usuli o'zini oqlaganligi e'tirof etiladi»².

Z. F. Inog'omjonovanning fikricha, yarashuv institutining o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Yarashuv munosabati bilan ko'rib chiqiladigan jinoyat ishlariga Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

2. Yarashuv to'g'risidagi jinoyat ishlari jinoyat ishini qo'zg'atish, dastlabki tergov va sud muhokamasini o'z ichiga oladi.

3. Surishtiruv va dastlabki tergovda quyidagilar isbotlanishi shart:

gumon qilinuvchi, ayblanuvchining ilgari sudlangan yoki sudlanmaganligi; jinoyat haqiqatan ham gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tomonidan sodir etilganligi; yetkazilgan barcha turdagi zararning ixtiyoriy ravishda qoplanganligi; jabrlanuvchi jinoiy qilmish sodir etgan shaxsni kechirib, yarashuv to'g'risida ariza berganligi.

4. Sud muhokamasiga ish materiallari, tergovchi tomonidan chiqarilgan va prokuror rozilik bildirgan yarashuv to'g'risidagi qaror, jabrlanuvchining yarashuv to'g'risidagi arizasi topshiriladi.

5. Sud muhokamasi majlisiga tayyorgarlik, sud muzokarasi va yarashuv to'g'risidagi ajrim chiqarish uchun maslahatxonaga kirish qismlaridan iborat.

6. Sud majlisida taraflarning bir tomonini prokuror va jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar), ularning vakillari, ikkinchi tomonini gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va ularning himoyachisi tashkil etadi.

7. Agar dastlabki tergovda yarashuv to'g'risidagi bitimga kelishilmagan bo'lsa, sud maslahatxonaga kiringunga qadar jabrlanuvchi yarashuv to'g'risidagi arizani topshirishi kerak. Bunday holda sud majlisi besh qismdan iborat bo'ladi.

8. Yarashuv to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan ajrim bo'yicha xususiy shikoyat yoki xususiy protest keltirilishi mumkin³.

¹ Никуфорова Е.Н. Роль адвоката в производстве по делам о примирении // Адвокат. – 2002. – №3. – С.39–40.

² Шамансуров А. А. Примирение вместо лишения свобода // Народное слово. – 2001. – 12 сент.

³ Qarang: Жинойт процесси: Дарслик / З. Ф. Иноғомжонованинг умумий тахрири остида. – Т., 2003. – Б.355.

B. A. Mirenskiy yarashuv institutini tahlil qilar ekan, yarashuv to'g'risidagi ishlarni yuritishning shartlari quyidagilardan iboratligini qayd etgan: 1) shaxs ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni ilk bor sodir etganligi; 2) shaxs o'z aybini tan olganligi va qilmishdan pushaymon ekanligi; 3) shaxs yetkazilgan zararni bartaraf etishga faol harakat qilayotganligi, ya'ni yetkazilgan zararni bartaraf etayotganligi; 4) jabrlanuvchining tergovchiga gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) bilan, sudda esa sudlanuvchi bilan yarashganligi to'g'risidagi ariza bilan ixtiyoriy ravishda murojaat etishi; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning, ularning qonuniy vakillarining jabrlanuvchi bilan yarashishga roziligining mavjudligi¹.

A. X. Raxmonqulov yarashuv institutini yuritish borasida muayyan fikrlar bildirib, jinoyat qanday kvalifikatsiya qilinmasin, agar jinoyat bo'yicha jabrlanuvchi yarashuvga rozi bo'lsa, mazkur ishni yarashuv asosida tugatish kerak, degan taklifni ilgari surgan².

Yarashuv institutining nisbatan mukammal tushunchasini V. V. Kadirova o'zining jinoyat protsessi bo'yicha tayyorlagan chizmalar to'plamida qayd etgan. Uning fikriga ko'ra, yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritish jabrlanuvchi va birinchi marta jinoiy qilmish sodir etgan shaxs (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi) o'rtasida jabrlanuvchi-ning jinoyatga qadar bo'lgan maqomi to'la tiklanganligi va yetkazilgan ziyonning bartaraf etilganligi haqida kelishuv tuzish yo'li bilan jinoyat ishini tugatish turlaridan biri³..

Bizning fikrimizcha, yarashuv to'g'risidagi ishlarni yuritish Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida mavjud bo'lgan va sodir etilgan jinoyat bo'yicha o'z aybiga iqrorlik, uning oqibatlari va keltirilgan zarar ixtiyoriy ravishda bartaraf etilgan harakatlar natijasida yuzaga keladi. Buning oqibatida jinoyatdan avvalgi huquqlari hamda mavqei tiklangan va ko'rgan zarari bartaraf etilgan jabrlanuvchi o'z ixtiyori bilan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi bilan yarashuv to'g'risidagi kelishuvga rozi bo'lib, bu haqda jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga ariza bilan murojaat etadi va uning harakatlari tekshirilishi va tasdiqlanishi natijasida jinoyatni sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilib, uni sudlanmaganlik maqomiga ega qilish

¹ Ўзбекистон Республикасининг жиноят процесси: Дарслик / Б. А. Миренский, А. Х. Рахмонкулов ва бошқ. – Т., 2004. – Б. 595-604

² Qarang: *Рахманкулов А.Х.* О некоторых вопросах развития прав человека в Республике Узбекистан // Инсон ҳуқуқларини таъминлаш адолатли жамиятнинг бош мезони. – Т., 2004. – Б.72–77.

³ Qarang: *Кадырова В. В.* Жиноят процесси фанидан чизмалар альбоми. – Т., 2002. – Б.138.

asosida ish sudning ajrimiga binoan tugatiladi. Ya'ni, yarashuv instituti shaxsning jamiyatda tutgan o'rnini saqlab qolish, oilasidagi muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik va javobgarlikka tortish natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarining oldini olishga zamin yaratyapti

Yuqorida qayd etilgan fikrlarni inobatga olib aytish mumkinki, yarashuv institutining joriy etilganligi nafaqat insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish g'oyasiga, balki xalqimizning mentalitetiga, dunyoqarashiga ham har tomonlama mos keladi¹. Chunki milliy an'analarimiz ruhida tarbiyalangan ko'pgina fuqarolarimizga sodir etgan jinoyati uchun so'roq yoki tergov ishlari boshlanishining o'ziyoq tegishli xulosa chiqarib olish va qonunni boshqa buzmaslik uchun ko'p hollarda kifoya bo'ladi. Bunday shaxslar tomonidan Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar sodir etilgan hollarda, agar ular qilgan qilmishlariga chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, jabrlanuvchi bilan yarashib, yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni qoplasalar (yoki jabrlanuvchi zarardan voz kechsa), ularni javobgarlikka tortishga hech qanday zarurat yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi 2002-yil 25-oktabr qarorida² yarashuv to'g'risida ish yuritish mumkin bo'lgan jinoyatlar turlari Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida tugal keltirilgan bo'lib, uning doirasini kengaytirish mumkin emasligi hamda yarashuv to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi Jinoyat-protsessual kodeksining 62-bobida belgilanganligi qayd etilgan.

M. Rajabova ta'kidlaganidek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida yarashuv to'g'risidagi ishlar alohida toifadagi jinoyat ishlari qatoriga kiritilgan. Bunday toifadagi ishlarni tergov va sud da hal qilish muddati qisqa bo'lib, surishtiruv yoki tergov idorasi jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakilidan yarashuv to'g'risidagi arizani olgach, yetti sutkadan ortiq bo'lmagan muddatda ishni sudga yuborish to'g'risida qaror qabul qilib, uch kun ichida prokurorning roziligi bilan sudga jo'natadi³.

Odil sudlov va jinoyat huquqida odillikning eng asosiy prinsiplaridan biri – sud tomonidan sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga mutanosib jazo belgilash prinsipi qonunchilikda o'z o'rniga ega emas. Mazkur prinsip nafaqat sodir etilgan qilmishning xavflilik darajasi, balki jabrlanuvchining jinoyatdan chekkan jabrini bartaraf etilgan yoki etilma-

¹ *Мамарохимов Қ.* Ярашув эзгулик калити // Куч адолатда. – 2010. – 30 дек. – № 51–52 (306)

² Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами (1991–2006). Т.2. – Т., 2006. – Б.126–129.

³ *Ражабова М.* Жиноий жазоларни либераллаштириш: илмий ва амалий таҳлил. – Т., 2005. – Б.41.

ganligiga qarab jazo belgilash xususiyatiga ega. Mazkur prinsipga qonun maqomini berish nainki ayblanuvchi va sudlanuvchi, balki fuqaroviy da'vogar va jabrlanuvchining dastlabki tergov va sud muhokamasidagi huquqiy himoyasini ancha kengaytirgan bo'lar edi.

Mazkur institutning ijobiy jihatlari haqida professor U. Tadjixanov shunday yozadi: «Tomonlar yarashuvi yangi huquqiy hodisa bo'lishiga qaramay, chuqur tarixiy ildizga ega, o'zaro bag'rikenglik (sabr-toqatlilik) va fuqarolarning bir-birlarini kechira olish xususiyati milliy madaniyatimizga doimo xos bo'lgan, o'ylaymizki, bu institut katta istiqbolga ega»¹.

X. T. Odilqoriyev va I. T. Tulteyevning fikrlari ham yuqoridagi fikrga hamohang. «Yarashuv doimo bizning milliy madaniyatimizga va mentalitetimizga xos bo'lgan»².

B. Jamolov bu to'g'rida quyidagi fikrlarni bildirgan: «Xalqimizning mentalitetiga mos bo'lgan yarashuv institutining qonunchiligimizga kiritilishi nafaqat huquqshunoslar, balki jamoatchiligimiz tomonidan ham mamnuniyat bilan qabul qilindi. Mazkur institut ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan sudlangan degan «tamg'a»ni qo'llash doirasini jiddiy ravishda qisqartirish imkonini berdi. Sudlar tomonidan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan yarashuv institutini tatbiq etish hollari yildan yilga ko'payib bormoqda».

N. Kireyevaning fikriga ko'ra, «yarashganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etish uchun quyidagi asoslar mavjud bo'lishi lozim: 1) aybdorning ayblovni tan olishi; 2) yetkazilgan zararni ixtiyoriy qoplashi; 3) jabrlanuvchi bilan yarashganligi; 4) yangi jinoyat sodir etmaydi, deyish uchun yetarli asoslarning mavjudligi».

Bizning fikrimizcha, yarashganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish uchun to'rtta shartning mavjud bo'lishi talab qilinadi:

1. Eng asosiy talab – JKning 66¹-moddasi jabrlanuvchini jinoyat sodir etgan shaxs bilan yarashganligini talab qiladi. Yarashuv to'g'risidagi kelishuv surishtiruv, tergov organlari yoki sudga jabrlanuvchi tomonidan taqdim etilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi bilan yarashganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi ariza asosida rasmiylashtiriladi yoki jabrlanuvchining arizasi asosida qo'zg'atilgan jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi mazmunga ega bo'ladi.

2. Shaxsning jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi muhim bir shartga ega bo'lishi kerak: og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun

¹ *Таджиканов У. Шахс манфаатлари – жиноятчиликка қарши кураш сиёсатини янада эркинлаштириш асоси // Халқ сўзи. – 2002. – 8 янв.*

² *Одилқориев Х.Т., Тультеев И.Т. Жиноий-ҳуқуқий сиёсатни либераллаштириш: зарурат ва омиллар // Ҳуқуқ–Право–Law. – 2002. – №1. – С.9.*

sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi.

3. Aybdor shaxs aybiga iqror bo'lishi va yarashuvga rozilik bildirishi shart.

Shuni ham aytish joizki, JKning 66¹-moddasi bo'yicha yarashuvni amalga oshirish tergov organlari va sudning majburiyati emas, balki bu ularning huquqi sifatida tan olinadi.

Shu bilan birga, jabrlanuvchining arizasiga ko'ra qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha (JKning 118-moddasining birinchi qismi va 119-moddasining birinchi qismi) jabrlanuvchining jinoyat sodir etgan shaxs bilan yarashish fakti jinoyat ishini tugatish uchun asos bo'la olmaydi, chunki bu jinoyatlar tarkibi bevosita JKning 66¹-moddasida qayd etilmagan.

4. Shuningdek yarashganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etish uchun aybdor shaxs tomonidan jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy, ma'naviy va mulkiy zarar to'la qoplangan bo'lishi kerak. Jabrlanuvchining shaxsan o'zi keltirilgan zararni qoplash, uning miqdori, shakli va uslubi to'g'risida tegishli shart qo'yish huquqi jinoyat-protsessual qonunida qayd etilmagan.

Bundan tashqari, keltirilgan zararni qoplash shakli ham qonunda aniq belgilanmagan, vaholanki u har xil bo'lishi mumkin. Masalan: og'zaki kechirim so'rash, mulkni bevosita ayblanuvchi tomonidan jabrlanuvchiga taqdim etilishi yoki keltirilgan zararni pul shaklida qoplash.

Demak, taraflar yarashganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning majburiy shartlaridan biri yetkazilgan zararining bartaraf qilinishidir. Yarashuv institutini amalga oshirish jarayonida zarar ikki xil usul bilan: *birinchidan*, jinoyat sodir etgan shaxsning jabrlanuvchi bilan yarashuvga qaratilgan faol harakatlari; *ikkinchidan*, zararining moddiy shaklda (ko'pincha pul bilan) qoplanishi orqali bartaraf etilishi mumkin¹.

Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha ishtirok etuvchi shaxslar doirasi boshqa toifadagi jinoyat ishlari ishtirokchilaridan bir muncha farq qiladi. Jumladan, yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud majlisida guvohlar, ekspertlar, xolislar, mutaxassislar hamda jamoat birlashmalari va jamoatchilik vakillarining ishtirok etishi ko'zda tutilmagan.

Ma'lumki, yarashuv deganda jabrlanuvchining aybdorni kechirishi emas, balki uning dastlabki talab va da'volaridan rasmiy ravishda voz kechishi tushuniladi. U jinoyatni sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka

¹ Qarang: *Нузамов С. М. Ярашув институти жиноий жавобгарликдан озод қилиш шакли сифатида // Ҳуқуқ ва бурч. – 2009. – №12. – Б. 47*

tortish iltimosidan voz kechishi (agar yarashuv jinoiy ish qo'zg'atilishdan oldin yuz bergan bo'lsa) yoki uning arizasiga ko'ra qo'zg'atilgan jinoyat ishini tugatishni so'rab bergan arizasidan iborat bo'ladi. Yarashuv akti jinoyat-protsessual qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi¹. Jabrlanuvchi bilan yarashuv aybdor aybiga iqrор bo'lmasdan avval ro'y berishi mumkin emas.

Jabrlanuvchining jinoyat sodir etgan shaxs bilan yarashish motivlari turli xil bo'lishi mumkin: aybdorning jinoyat sodir etishdan keyingi xulqi, jumladan, jabrlanuvchining yetkazilgan zarar qoplanganligi tufayli kechirishi, rahmi kelishi, do'stlik, hamkorlik va hokazo. Ayrim hollarda aybdorning yarashuvni taklif etish motivi sodir etgan qilmishi uchun jinoiy ta'qibdan qutilish, jazodan qo'rqish, jinoyat ishtirokchisiga aylanib qolishni istamaslik, sudlanganlik maqomiga ega bo'lishdan xavfsirash va hokazo bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, yarashuv tashabbusi har ikki tarafdan ham chiqishi mumkin. Yarashuv ikkala tomon ham rozi bo'lgan, shuningdek, ixtiyoriy tuzilgan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar (dastlabki tergovda tergovchi yoki prokuror, sud majlisida sudya) tomonidan qabul qilinadi.

Ish bo'yicha bir aybdor va bir necha jabrlanuvchi bo'lgan holatlar ham uchrab turadi. Agar jabrlanuvchilarning bittasidan tegishli ariza bo'lmagan taqdirda yarashuv to'g'risida ish yuritish mumkin emas, bunday holda ish yuritish umumiy asoslarda olib boriladi.

Ayni vaqtda, ish bo'yicha bir jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar) va bir nechta gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi bo'lsa, jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar) ulardan ayrimlari bilan yarashishi mumkin. Bunday hollarda jinoyat ishining jabrlanuvchi bilan (fuqaroviy da'vogar) yarashuvga kelishgan gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchilarga oid qismi alohida ish yurituvga ajratilib, Jinoyat-protsessual kodeksining 584-moddasi tartibida sudga yuboriladi, qolganlariga doir qismi bo'yicha esa ish yuritish umumiy asoslarda olib boriladi².

Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud muhokamasi jinoyat ishi sudga kelgan paytdan e'tiboran o'n sutkadan kechiktirilmay o'tkaziladi. Yarashuv to'g'risidagi ariza sud majlisida berilsa, bu masala sud majlisida darhol hal etilishi lozim.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 25 октябрдаги «Ярашув тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги қарори.

² Қаранг: *Рустамбаев М. Х.* Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар: Умумий қисм. – Т., 2006. – Б.854.

Jinoyat kodeksining 66¹-moddasi yarashganlik tufayli javobgarlikdan ozod qilishni majburiyat sifatida emas, balki ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladigan huquq sifatida belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, yarashuv tomonlarning erkin irodasiga ko'ra tuziladigan bitimdir. U aybdorni afv etib, qilmishi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishini istamaslikda namoyon bo'ladi. O'z navbatida, aybdor shaxsdan o'z aybini tan olib, yetkazilgan zararni qoplash talab etiladi.

Yarashuv to'g'risidagi ariza surishtiruv va dastlabki tergovning istalgan bosqichida, ya'ni shaxs gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan paytdan boshlab, sudlanuvchi esa jinoyat ishini ko'rib chiqayotgan birinchi instansiya sudi maslahatxonaga kiringunga kadar berilishi mumkinligi qonunda nazarda tutilgan. Surishtiruvchi, tergovchi yoki sudya yarashish to'g'risidagi arizani qabul qilish vaqtida jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakiliga, agar sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ish bo'yicha ish yuritishni qayta tiklash to'g'risida iltimosnoma berish huquqini yo'qotishi tushuntiriladi¹.

Yarashuv to'g'risidagi arizaning shakli, mazmuni va uni berish tartibiga doir qonunda muayyan talablar belgilangan. Yarashuv to'g'risidagi ariza har doim yozma shaklda taqdim etilib, unda yetkazilgan zarar qoplanganligi va yarashuv tufayli jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimos albatta ko'rsatilgan bo'lishi shart. Yarashuv to'g'risida ish yuritish masalasini qo'zg'atish huquqiga ega bo'lgan yagona subyekt jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar) yoki uning qonuniy vakili bo'lib, u qonunda belgilangan tartibda shunday deb tan olinishi kerak. Jabrlanuvchi ayni bir vaqtning o'zida fuqaroviy da'vogar hisoblanmagan hollarda yarashuv to'g'risida ish yuritishni boshlash uchun ham jabrlanuvchi, ham fuqaroviy da'vogar tomonidan tegishli ariza berilgan bo'lishi shart. Ish bo'yicha bir nechta jabrlanuvchi bo'lgan holatlar uchun ham qonunda aynan shunday talablar belgilangan. Chunonchi, ularning hatto bittasidan tegishli ariza bo'lmasa ham yarashuv to'g'risida ish yuritish mumkin emas. Bunday holatda jinoyat ishi bo'yicha ish yuritish umumiy asoslarda olib boriladi².

Qonunda yarashuv to'g'risidagi ariza jinoyat protsessining istalgan bosqichida, ya'ni shaxs gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan paytdan to jinoyat ishini ko'rib chiqayotgan sud maslahatxonaga kiringuncha berilishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Qonunning mazmuniga ko'ra, bunday ariza apellatsiya, kassatsiya va

¹ Қаранг: Усмоналиев М. Ҳозирги замон жиноят ҳукуки муаммолари. –Т., 2006. – Б.217.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами (1991–2006). Т.2. – Т., 2006. – Б. 127

nazorat instansiyasi sudi maslahatxonaga kiringunga qadar ham berilishi mumkinligini nazarda tutadi. Bunday hollarda ish bo'yicha hukm mavjud bo'lishiga qaramasdan, jinoyat ishi shaxsning aybdorligi masalasi hal qilinmay turib tugatilgan hisoblanadi va aybdor uchun sudlanganlik holatini keltirib chiqarmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida qayd etilganidek, «yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud zimmasiga qonun bilan yuklatilgan majburiyat yarashuv sud tomonidan tasdiqlangandan keyin kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarining jabrlanuvchiga tushuntirilishi shartligidir. Qonunning ushbu talabiga rioya etmaslik yarashuv to'g'risidagi qarorning noqonuniy deb topilishiga olib keladi. Shu bilan birga, sudlar nazarda tutishlari kerakki, jabrlanuvchi faqat birinchi instansiya sudi maslahatxonaga kiringunga qadar ayblanuvchi bilan yarashishdan voz kechishga haqli. Yarashuv to'g'risidagi qonun normalari qo'llanilishining tezkorligi va kafolatlanishini ta'minlash, ayblanuvchining huquqlarini muhofaza etish maqsadida, yarashuv to'g'risidagi ish bo'yicha qaror chiqarish va surishtiruv yoki tergov organi tomonidan sudga yuborish uchun qonunda o'n kunlik muddat belgilangan. Yarashuv munosabati bilan jinoyat ishini tugatish masalasi bunday ish sudga kelib tushgan vaqtdan boshlab, yarashuv to'g'risidagi ariza sud majlisida berilgan hollarda esa, ariza berilgan vaqtdan boshlab o'n kun ichida hal etilishi kerak. Sudlar surishtiruv yoki tergov organlari tomonidan ishni sudga yuborish muddatlari buzilishiga nisbatan muvossasiz bo'lishlari va buning oldini olish maqsadida xususiy ajrimlar chiqarishlari lozim¹.

Bunday xulosaga kelishimizga turtki bo'lgan omil – bugungi kunda yarashuv institutining samarali qo'llanishiga sabab bo'layotgan holat, ya'ni kishilarda ushbu institutga nisbatan shakllangan ishonch, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, bugun Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida qayd etilgan jinoyatlardan birini sodir etgan shaxs, jabrlanuvchining kechirishi uning javobgarlikdan ozod bo'lishini ta'minlashini bilgani holda, sodir etgan jinoyatining fosh etilishida shaxsiy tashabbus ko'rsatishi talab etiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами (1991–2006). Т.2. – Т., 2006. – Б. 127–129.

YARASHUV TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISH BO‘YICHA DASTLABKI TERGOV ORGANLARI FAOLIYATINING PROTSESSUAL TARTIBI

Jinoyat ishlarini yarashuv asosida ko‘rib chiqish demokratik huquqiy davlat shakllanishi davrida jinoyat huquqini liberallashtirish, ayni vaqtda, jinoyat protsessida huquqni tiklash funksiyasini amalga oshirishning samarali shakllaridan biridir.

Yarashuv jinoyatdan jabrlangan shaxs bilan jinoiy qilmishni birinchi marta sodir etgan aybdor shaxs (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi)ning jabrlanuvchining jinoyatgacha bo‘lgan maqomini to‘liq tiklash va jinoyat tufayli yetkazilgan zararni bartaraf etish to‘g‘risidagi kelishuvi orqali jinoyat ishini tugatish turi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 66¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkiblaridan birining mavjudligi yarashuv uchun huquqiy asos hisoblanadi.

Yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritish shartlari quyidagilardan iborat: 1) shaxs ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatni ilk bor sodir etganligi; 2) shaxs o‘z aybini tan olganligi va qilmishidan pushaymon ekanligi; 3) shaxs yetkazilgan zararni bartaraf etishga faol harakat qilayotganligi, ya’ni yetkazilgan zararni bartaraf etayotganligi; 4) jabrlanuvchining tergovchiga gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) bilan, sudda esa sudlanuvchi bilan yarashganligi to‘g‘risidagi ariza bilan ixtiyoriy ravishda murojaat etishi; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning, ularning qonuniy vakillarining jabrlanuvchi bilan yarashishga roziligining mavjudligi.

JPKning 582-moddasiga muvofiq, yarashilganligi munosabati bilan faqat Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar (ya’ni ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar ro‘yxatida bo‘lgan jinoyatlar) to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilishi mumkin.

Yarashuv to‘g‘risidagi ariza jabrlanuvchi (fuqaroviy da’vogar) yoxud uning qonuniy vakili tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovning, shuningdek sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud maslahatxonaga kirishidan oldin berilishi mumkin. Arizada yetkazilgan ziyon bartaraf etilgani, shuningdek yarashilganligi munosabati bilan jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritilishini tugatish to‘g‘risidagi iltimos bayon etilgan bo‘lishi shart.

Agar yarashuv to‘g‘risidagi ariza ish birinchi instansiya sudida sud muhokamasidan o‘tkazilayotganda berilsa, sud uni darhol ko‘rib chiqishga kirishadi.

Agar ish bo'yicha bir necha jabrlanuvchi bo'lsa, faqat barcha jabrlanuvchilar bilan yarashuvga erishilgan taqdirdagina yarashuv to'g'risidagi ishni yuritish mumkin.

Arizani qabul qilish paytida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ishni yuritishni qayta tiklash to'g'risida iltimosnoma berish huquqini yo'qotishini tushuntirishi shart

Yarashuv munosabati bilan jinoyat ishini tugatishning asosiy shartlaridan biri – moddiy va ma'naviy zararning qoplanishi. Zararni qoplash turli shakllarda, jumladan naqd pul ko'rinishida, moddiy shaklda va ma'naviy zararni to'lash tarzda amalga oshirilishi mumkin. Bu harakatlarning ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tomonidan bajarilishi ayblov va himoyaning yaqinlashuviga va bitimning imzolanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Yuqoridagi shartlarning bajarilishi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortmaslikka asos bo'lishi mumkin. Jinoyat ishini yarashuv bilan tugatish uchun ishni sudga yuborish to'g'risidagi qaror surishtiruvchi, tergovchi tomonidan prokuror roziligi bilan hamda prokurorning o'zi tomonidan dastlabki tergovning istalgan bosqichida chiqarilishi mumkin.

Jinoyat ishini yarashuv bilan tugatish uchun, ishni sudga yuborish to'g'risida qaror chiqarishdan oldin, quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- yarashuvning ixtiyoriyligi va uning sabablari;
- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi o'zi sodir etgan qilmishning oqibatlarini anglaganligi va yetkazilgan zararni bartaraf etish choralarini ko'rganligi;
- jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar), gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiga biror-bir tazyiq bo'lmaganligi;
- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qonuniy vakillari yarashuvga roziliklari.

Yarashuv munosabati bilan jinoyat ishini sudga yuborish to'g'risidagi qarorda Jinoyat kodeksining 66-moddasida ta'kidlangan shartlarning bajarilganligi va jabrlanuvchi yoki jabrlanuvchilarning ixtiyoriy arizasi yarashuv bitimi haqidagi qarorga asos sifatida ko'rsatilishi shart. Yarashuv bitimi bir necha jabrlanuvchilar bilan amalga oshirilishida barcha jabrlanuvchilarning arizalari bo'lgandagina rasmiylashtiriladi. Agar jabrlanuvchilardan biri yarashuvga rozilik bildirmasa, yarashuv bitimi rasmiylashtirilishi mumkin emas.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar) yoki uning qonuniy vakilining yarashuv to'g'risidagi arizasini olgach, yetti

sutkadan ortiq bo'lmagan muddatda gumon qilinuvchi, ayblanuvchining roziligi bilan ishni sudga yuborish to'g'risida qaror chiqaradi.

Qarorning tavsif qismida quyidagilar ko'rsatiladi: jinoyat ishi qo'zg'atilishining asoslari, ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, ular ayblanayotgan qilmishlar va ularga nisbatan qo'llanilgan ehtiyot choralari, shuningdek yarashuv to'g'risidagi arizaning mazmuni hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchining arizaga munosabati.

Hujjatning qaror qismida: 1) ishni sudga yuborish to'g'risidagi; 2) ehtiyot chorasi to'g'risidagi, shuningdek fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari to'g'risidagi; 3) ashyoviy dalillar to'g'risidagi qarorlar ko'rsatiladi.

Agar ish bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida ishtirok etish uchun bir necha shaxs jalb qilingan bo'lib, barchasi bilan ham yarashuvga erishilgan bo'lmasa, yarashuvga erishilmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchilarga taalluqli materiallar ajratiladi va ular bo'yicha ish yuritish umumiy qoidalar asosida amalga oshiriladi, bu haqda qarorda ko'rsatiladi.

Ish qaror chiqarilganidan keyin uch sutka ichida prokurorning roziligi bilan sudga yuboriladi.

DASTLABKI TERGOV ORGANLARI TOMONIDAN YARASHUV TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilish izchillik va qo‘yilgan vazifalarning bosqichma-bosqich hal etilayotganligi bilan tavsiflanadi. Amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining birlamchi maqsadi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini hamda jamiyatda barqarorlikni ta‘minlashdan iboratdir¹. Shu ma‘noda, yarashuv institutining bu boradagi ahamiyati o‘ziga xos bo‘lib, u ko‘plab rivojlangan demokratik davlatlar qonunchiligi va amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llanib kelinmoqda. Bu normalarning mamlakatimiz amaliyotida an‘anaviy tus olib, o‘zini oqalayotganligi e‘tirof etilmoqda². Y. N. Nikifirova ta‘kidlaganidek, «jinoyat protsessida dispozitiv asoslarni kengaytirish maxsus tartib – jinoyat ishlari bo‘yicha yarashuv shaklining kiritilishi bilan bog‘liq. O‘ylaymizki, jabr ko‘rgan shaxs va ayblanuvchi o‘rtasida yuzaga kelgan ziddiyatning yarashuv asosida bartaraf etilishi so‘zsiz ravishda O‘zbekiston Respublikasida jinoyat ishi sudlovi yuritilishining demokratik rivojlanishiga ko‘mak beradi»³.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga yarashganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi normaning (66¹-modda) kiritilishi jinoyat sodir etib, o‘z qilmishidan pushaymon bo‘lgan shaxslarning javobgarligi masalalarini ijobiy hal qilish imkoniyatini yaratdi. Jumladan, jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxsning ham, jinoyat sodir etgan shaxsning ham manfaatlarini himoya qilishga yo‘l ochildi. Jinoyat qonuniga bu institutning kiritilishi bilan jinoyat qonunchiligi siyosatidagi liberallashtirish va adolatni qaror toptirish imkoniyatlarini takomillashtirishning yana bir mexanizmi joriy etildi.

Sud muhokamasida yarashuv institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasidan kelib chiqadigan eng asosiy maqsad – jabrlanuvchilarga jinoyatdan ko‘rgan zararlari qoplanishi va ma‘naviy

¹ Qarang: *Тухташева У. А.* Задачи Концепции дальнейшего углубления демократических реформ и формирования гражданского общества в стране по реформированию судебно-правовой системы // *Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилигининг либерализация шароитида суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолияти: Илмий-амалий конференция материаллари.* – Т., 2011. – С. 3.

² Qarang: *Соупов И., Умарбекова Ю.* Қонунчилигимизда ярашувчилик институти // *Ярашувчилик институтини такомиллаштириш: назария ва амалиёт: Давра суҳбати.* – Т., 2005. – Б. 93–94.

³ *Никифорова Е. Н.* Диспозитивное начала в уголовном процессе Республика Узбекистан // *Ҳуқуқ – Право – Law.* – 2002. – №1. – С.64–66.

jihtdan kechirgan azoblari bartaraf etilishi bilan birga, jinoyat sodir etgan shaxs sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan holda, o'z aybiga iqror bo'lib, ixtiyoriy ravishda jinoyat natijasida yuzaga kelgan oqibatlarini bartaraf etishi, jabrlanuvchidan kechirim so'rash hamda kelgusida bunday harakatlarni sodir etishdan voz kechishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga sodir etgan jinoyati fosh etilishida imkoni boricha yordam ko'rsatishdan iborat bo'lishi shart.

Zararni bartaraf qilish yetkazilgan mulkni qayta tiklash, o'g'irlangan mol-mulkni qaytarib berish, tovon puli to'lash, dori-darmon, sanatoriya va sihatgohlarga yo'llanmalar olib berish, jabrlanuvchidan kechirim so'rash va qonunda taqiqlanmagan boshqa shakllarda ifodalanishi mumkin.

Aybdor shaxs uchun ham, jabrlanuvchi uchun ham jinoyat ishining yarashganlik munosabati bilan tugatilishi katta imtiyozlar beradi. Jabrlanuvchining jinoyat sodir etgan shaxs bilan sud hukmidan avval yarashuvni amalga oshirishi uni bir nechta nomaqbul holatlarga tushib qolishining oldini oladi.

Jinoyat sodir etilishi natijasida keltirilgan zarar aybdor tomonidan bir zumda bartaraf etiladi. Jinoyat ishining mantiqiy xulosasi hukm chiqarilishigacha borgan hollarda jabrlanuvchining moddiy zararni qoplash bilan bog'liq da'vo talablari bevosita qondirilishi kerak bo'ladi. Ammo, amaliyot shuni ko'rsatadiki, jabrlanuvchi uchun moliyaviy vositalarni olish jarayonida muammolar yuzaga keladi. Mahkumning ko'pincha muayyan ishga ega bo'lmasligi, mulkdor emasligi unga nisbatan moddiy jarima qo'llanilganda muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, mahkumning o'zida zararni qoplash niyati bo'lmaydi va eng yomon tomoni sud muhokamasi retrospektivada qolib ketadi. Bunda sud hukmining ijro etilishi bir necha yillarga cho'zilib ketishi, ba'zan esa ma'lum muddat o'tganidan so'ng umuman bajarilmasdan qolish xavfini vujudga keltiradi.

Yarashuv paytida sud zararni qoplash summasini belgilaydi. Agar bu vakolat jabrlanuvchiga berilsa, yarashuv instituti sezilarli darajada o'z mavqeini yo'qotar edi. Chunki sud faqat ma'naviy zararni bartaraf etish bilan bog'liq summani belgilaydi, jabrlanuvchilar o'zlarining manfaatlari-dan kelib chiqqan holda bunday miqdorni haddan tashqari katta summa bilan o'lchaydilar. Shuning uchun sud belgilagan ma'naviy zarar, jabrlanuvchining da'vo arizasida ko'rsatilgan zarardan sezilarli darajada kam bo'ladi.

Agar dastlabki tergov davrida jabrlanuvchidan unga yoqmaydigan savollarni faqat bir shaxs (tergovchi) so'raydigan bo'lsa, sud muhokamasida esa bunday savollarni unga sud, prokuror, sudlanuvchi va uning himoyachisi berishi mumkin. Bundan tashqari, doimo sud zalida boshqa qizi-

quvchi fuqarolar sud protsessini kuzatishlari mumkin. Shu bois jabrlanuvchi uchun sud protsessi nihoyatda og‘ir o‘tadi va aybdor shaxsga nisbatan tanlangan jazo ham bu protsess oqibatida olingan salbiy taassurotlardan ozod etishi qiyin.

Jinoyat ishi jabrlanuvchining juda ko‘p vaqtini oladi. Na tergovchi, na sud jabrlanuvchining vaqtiga e‘tibor qaratmaydi va bu bilan qiziqmaydilar ham. Jabrlanuvchi chaqiruv qog‘ozlari asosida ma‘lum soatga kelishi shart va tergov harakati yoki sud muhokamasining davomiyligiga qaramasdan protsessning oxirigacha sud zalida bo‘lishi kerak.

Jinoyat sodir etgan shaxs uchun ham jabrlanuvchi bilan yarashish ijobiy natija beradi, chunki u jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi va sudlanganlik bilan bog‘liq salbiy maqomga ega bo‘lmaydi.

Jinoyat-protsessual kodeksning 583-moddasida yarashuv to‘g‘risidagi ariza jabrlanuvchi (fuqaroviy da‘vogar) yoxud uning qonuniy vakili tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovning, shuningdek sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud maslahatxonaga kirishidan oldin berilishi ko‘zda tutilgan.

Qonun apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida yarashuvni qo‘l-lashni taqiqlamagan, ammo, amaliyotning ko‘rsatishicha, sudlar faqat ikkita ishni jinoyat ishlari bo‘yicha Farg‘ona va Sirdaryo viloyat sudlarining apellatsiya instansiyalarida jabrlanuvchining yarashuv to‘g‘risidagi arizasiga asosan tugatgan.

Yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud zimmasiga qonun bilan yuklatilgan majburiyatlardan biri – yarashuv sud tomonidan tasdiqlanadigan bo‘lsa, undan keyin kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarning jabrlanuvchiga tushuntirilishi shartligi.

Jinoyat-protsessual kodeksning 583-moddasi 5-qismida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud arizani qabul qilish paytida jabrlanuvchi (fuqaroviy da‘vogar) yoki uning qonuniy vakiliga mazkur ish bo‘yicha ish yuritishni qayta tiklash to‘g‘risida iltimosnoma berish huquqini yo‘qotishini tushuntirishi shartligi ko‘rsatilgan. Jinoyat ishlarini o‘rganish natijalari sudlar tomonidan qonunning bu talabi bajarilayotganligini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish institutiga doir masalalarni o‘rganish natijalari yarashuv instituti bilan bog‘liq ayrim muammolar mavjudligini ko‘rsatadi va ularni bartaraf etish yo‘llari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

– jinoyat-protsessual qonunni takomillashtirish (yarashuv to‘g‘risidagi ariza o‘rniga yarashuv to‘g‘risidagi qarorning o‘qib eshittirilishi);

– yarashuvni dekriminallashtirishni ishni tugatish asosi sifatida alohida moddada qayd etish;

– yarashuv asosida tugatiladigan qilmishlar doirasini Jinoyat kodeksida kengaytirish;

– yarashuvni avval sudlangan shaxslar uchun ham qo‘llash imkoniyatini yaratish masalasini jinoyat-protsessual qonunchilikni rivojlantirish vazifalari qatoriga qo‘shish.

Yarashilganligi munosabati bilan ishni tugatishning afzalligi shundaki, *birinchidan*, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararining tezda va to‘liq qoplanishi ta‘minlanadi; *ikkinchidan*, jinoyat sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilgani uchun sudlanmagan hisoblanadi; *uchinchidan*, aybdorlarni kechirish orqali ular jazolanmasdan tarbiyalanadi¹.

Shu o‘rinda, tergov va sud amaliyotidan kelib chiqib, yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etish holatlari juda kam miqdorni tashkil qilishini, bu shaxslar jamiyatda ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanib, hayotda o‘z o‘rinlarini topib ketishayotganini hisobga olib, ishlarni yarashilganligi munosabati bilan tugatish uchun ayrim cheklashlarni qonunchilikdan chiqarish, Jinoyat kodeksining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish davr talabidir. Quyida kiritilishi taklif etilayotgan ayrim qo‘shimcha va o‘zgartirishlarga to‘xtalamiz.

Yarashuv institutini qo‘llash mumkin bo‘lgan jinoyat tarkiblari doirasini kengaytirish, ushbu institutni amaliyotga yanada kengroq tatbiq etib, Jinoyat kodeksining 66¹-moddasiga ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan barcha jinoyat tarkiblarini, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan, qonunda 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlarini kiritish maqsadga muvofiq.

Q. R. Abdurasulova bu institut xususida quyidagi fikrlarni bildirgan: «Jinoyat protsessida dispozitiv asoslarning kengaytirilishi maxsus tartib – jinoyat ishlari bo‘yicha yarashuv shaklining kiritilishi bilan bog‘liq. O‘ylaymizki, xususiy ayblovning kiritilishi va jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxs va ayblanuvchi o‘rtasida yuzaga kelgan jinoiy ziddiyatni yarashuv asosida bartaraf etilishi, shubhasiz, O‘zbekiston Respublikasida jinoyat ishlari sudlovi demokratik tarzda rivojlanishiga ko‘mak beradi»².

Shuningdek, Q. R. Abdurasulova jabrlanuvchi jinoyatdan yetkazilgan zararni ham kechirishi mumkinligi masalasiga ham urg‘u beradi. Ammo

¹ Qarang: *Мухторов Н. Ярашув институти такомиллашмоқда // Қалқон. – 2009. – 7 июль. – Б.4.*

² *Абдурашулова Қ. Р. Ярашганлиги муносабати билан жиноий жавобгарликдан озод қилиш институти: кечиримлилик ва бағрикенгликнинг ёрқин ифодаси // Хусусий айблов ва ярашув институтларини такомиллаштириш чоралари: Республика илмий-амалий конференциялари материаллари. – Т., 2015. – Б. 74–78.*

bu fikr xususida shuni aytish joizki, yarashuvning mohiyati jinoyatdan jabr koʻrgan shaxsning jinoyat natijasida cheklangan huquqlarining qayta tiklanishi keltirilgan zararni bartaraf etishsiz mumkin emasligidan iborat. Shuning uchun jinoyat natijasida yetkazilgan zarar doimo yarashuv munosabatlarida jabrlanuvchi foydasiga hal etilishi kerak.

Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida shaxsning jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligi koʻzda tutilgan. Bunda keltirilgan asoslar boʻyicha jinoyat ishini tugatish toʻgʻrisidagi masala unga vakolati boʻlgan subyektlar ixtiyoriga havola etiladi. Ushbu holatda, jabrlanuvchi bilan ayblanuvchi yarashganligidan qatʼi nazar, ish boʻyicha yakuniy qaror qabul qilish vakolati subyektlarning xohishiga bogʻliq boʻladi.

B. X. Poʻlatov ham bu sohada amalga oshirilgan ishlarni ijobiy baholab, qonunchilikni takomillashtirish va amaliyotda mavjud boʻlgan xato-kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan bir qator takliflarni ilgari suradi: jinoyat qonunida yarashuv ruxsat etilgan qilmishlar doirasini kengaytirish, shu jumladan muqaddam sudlangan shaxslar uchun ham; yarashuv toʻgʻrisidagi sud qaroriga shikoyat keltirish tartibini qonunda belgilash; yarashuvga doir ishlarni koʻruvchi maxsus sudyalar, yaʼni yarashuv sudyalarini joriy qilish; Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi muhokamasiga amaliyotdagi xato-kamchiliklarni keskin kamaytirishga hamda qonuniy, asoslangan va adolatli ajrim chiqarilishi, jinoyat protsessi ishtirokchilari-ning huquq va qonuniy manfaatleri lozim darajada taʼminlanishiga yordam beruvchi aniq takliflar tayyorlash¹.

Bundan tashqari, Z. F. Inogʻomjonova va O. M. Madaliyevlar ham ushbu institutni takomillashtirish istiqbollari toʻgʻrisida fikr yuritib, «sud qarorining adolatli, faqat qonunga asosan chiqarilishini taʼminlash uchun ayblanuvchiga, uning himoyachisi va qonuniy vakiliga ham «yarashuv toʻgʻrisidagi ishlarni yuritish»ni soʻrab murojaat qilish huquqini berish kerak, ularning iltimosi albatta jabrlanuvchi, uning himoyachisi yoki qonuniy vakillari va iltimosnomani hal qilayotgan shaxs tomonidan birgalikda muhokama etilishi va qanday kelishuvga kelinganligi toʻgʻrisida «bayonnoma» tuzilishini majburiy tarzda belgilab, qonunga oʻzgartirish kiritilsa, maqsadga munofiq boʻlar edi»², deb yozadilar.

¹ Қаранг: Пулатов Б. Х. Ярашувчилик институтининг истикболлари // Ярашувчилик институтини такомиллаштириш: назария ва амалиёт: Давра суҳбати материаллари. – Т., 2005. – Б. 7–8.

² Иноғомжоновна З. Ф., Мадалиев О. М. Ярашув тўғрисидаги ишларни юри-тишнинг ўзига хос хусусиятлари // Ярашувчилик институтини такомиллаш-тириш: назария ва алмалиёт: Давра суҳбати материаллари. – Т., 2005. – Б. 14.

Q. R. Abdurasulova va G. Z. To‘laganova ham yarashuv institutini takomillashtirish bo‘yicha «yarashuv institutini amaliyotga yanada kengroq tatbiq etib, Jinoyat kodeksining 66¹-moddasiga ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan barcha jinoyat tarkiblarini, shuningdek, ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan, qonunda 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlarning kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa, o‘z navbatida, ayblanuvchiga o‘z xatosini tuzatish, sudga esa jabrlanuvchining buzilgan huquqlarini tiklash imkonini beradi»¹, deb e‘tirof etadilar.

Bundan tashqari, Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi 1-qismining 6-bandiga muvofiq, aybdorni jinoiy javobgarlikdan ozod qiladigan norma jazoni yengillashtiruvchi holatlar majmuining mavjud bo‘lishini talab etadi. Masalan, jinoyatni birinchi marotaba sodir etganlik, yetkazilgan zararni qoplash yoki ziyonni bartaraf etish kabi bir qator shartlarni ilgari surib, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan ishni to‘xtatish to‘g‘risidagi qarorning qabul qilinishi uchun huquqiy asos hisoblanuvchi qo‘shimcha talablar taqdim etilishi lozimligidan dalolat beradi.

Yarashuv to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha, shuningdek, sud muhokamasini olib borishning alohida tartibi va yarashuv tufayli ishni tugatish masalasini hal etish chog‘ida sud aniqlashi shart bo‘lgan holatlar doirasi ham belgilangan (JPK 585-moddasi 5-qismi). Agar sud majlisi davomida yarashuv yoki aybga iqror bo‘lish ixtiyoriy emasligi, zararni qoplashdan bosh tortish, shuningdek sodir etilgan qilmishda yanada og‘irroq jinoyat belgilari mavjudligi aniqlangudek bo‘lsa, sud ishni umumiy asoslarda dastlabki tergov yuritish uchun prokurorga yuborish to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

Yarashuv ishlarini apellatsiya, kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish yuqori turuvchi sud emas, balki jinoyat ishini ko‘rib chiqqan sud tomonidan yuritilishi maqsadga muvofiq. Chunki yuqori turuvchi instansiyada ishning apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rilishi ko‘proq nazorat ahamiyatiga ega bo‘lib, birinchi instansiya sudlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatishga, kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘ladi. Biroq, yarashuvga tatbiqan bunday xususiyatlar muayyan mazmun kasb etmasligini, boz ustiga birinchi instansiya sudi ish holati bilan yanada chuqurroq tanish bo‘lishini inobatga olib, shuningdek, yuqori instansiya sudlarining vaqtini tejash va davlat budjetini iqtisod qilish, qolaversa jinoyat protsessi taraflariga qo‘shimcha qulaylik yaratish maqsadida yarashuvga oid apellatsiya, kassatsiya ishlarini ko‘rishni yuqori turuvchi sud emas, balki jinoyat ishini ko‘rib chiqqan sud tomonidan yuritilishini ko‘z-

¹ *Абдурасулова Қ. Р., Тўлаганова Г. З. Ярашувчилик институтида адвокатнинг иштироки // Ярашувчилик институтини такомиллаштириш: назария ва амалиёт: Давра суҳбати материаллари. – Т., 2005. – Б. 29.*

da tutuvchi tartibni joriy etish kerak. Bu takliflarning O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorida aks ettirilishi yarashuv institutining rivojlanishi uchun asos bo‘lib, ham jabrlanuvchi, ham ayblanuvchi (sudlanuvchi)larning qonuniy manfaatlariga mos keladi, shuningdek, jinoyatlarni dekriminallashtirishning huquqiy asosi sifatida xizmat qiladi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan va uncha og‘ir bo‘lmagan, jinoyatdan keltirilgan zararni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo‘lgan jinoyatlar bo‘yicha yarashuv institutini qo‘llashni qonun chiqaruvchi organ tomonidan qabul etilishi ham ayni muddao bo‘lar edi. Bu bevosita ularning huquq va qonuniy manfaatlari muhofazasi uchun muhim ijobiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

A. Irsaliyevning fikriga ko‘ra, «voyaga yetmagan sudlanuvchi yarashishga moyil bo‘lgan holda uning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari norozi bo‘lsalar ham masala ijobiy hal qilinishi lozim. Voyaga yetmaganining iqrorigi, roziligi bo‘lmasa-da, uning qonuniy vakillari bilan jabrlanuvchi o‘rtasida yarashuv ahdi tuzilgan holda ish sudga yuborilishi va sud masalaning barcha holatlarini hisobga olib, yarashuvni ma’qullashga haqli bo‘lishi maqsadga muvofiq»¹.

Shuningdek, ish Jinoyat kodeksining 66¹-moddasiga tushmaydigan jinoyat bo‘yicha qo‘zg‘atilib, biroq sud muhokamasida 66¹-modda asosida yarashuv qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jinoyat ishi sifatida qayta malakalangan hollarda, sud hukmida yarashuvni qo‘llash to‘g‘risidagi masalani hal qilib o‘tishi maqsadga muvofiq. Bunday hollarda, ayrim huquq tizimlarida mavjud bo‘lganidek, tomonlar mazkur holat bo‘yicha yarashuvga rozi bo‘lsalar, ishni ko‘rgan sud tomonlarning yarashganligi munosabati bilan ishni tugatish to‘g‘risida ajrim chiqarib hal etishi hamda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha yarashuvni qo‘llashini qonunchiligimizga joriy etish vaqti keldi.

Yarashuv institutini takomillashtirish maqsadida Jinoyat-protsessual kodeksining 62-bobiga tegishli o‘zgartishlarni kiritish, xususan, yarashuv to‘g‘risidagi tushuncha (582-modda), yarashuv munosabati bilan ko‘riladigan jinoyat ishlari (582-modda), yarashuv to‘g‘risidagi ariza (583-modda), shuningdek, yarashuvni amalga oshirish natijasida jinoyat ishining tugatilishi va shaxsni sudlanmaganlik maqomiga ega bo‘lish asoslari (33-modda) kabi moddalarni belgilab qo‘yish va hokazo. O‘yla ymizki, mazkur takliflarning jinoyat-protsessual qonunchiligidan o‘rin olishi jinoyatdan jabrlan-

¹ *Ирсалиев А. Вояга етмаганларнинг ишларини судда юритиш / Масъул мухаррир проф. Ғ. Абдумаджидов. – Т., 2003. – Б. 78.*

gan shaxslarning talablari qondirilishi hamda qonuniylikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan omillar, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunning yarashuv instituti bilan bog'liq normalarda belgilangan shartlar bajarilganida, aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar o'z isbotini topganida, jinoyat ishini yuritishga mas'ul organlar uchun ushbu asosning qo'llanishi majburiylikni aks ettirishi lozim.

Shu bilan birga, A. A. Xamrayevning fikricha, «sudyalar kasbiy huquqiy ongiga ijobiy va salbiy ta'sir qiluvchi omillar mavjud. Salbiy omillar: jinoyatchilik va huquqbuzarlikni haddan tashqari ko'payib ketishi; jinoyatga moyil bo'lgan shaxslar bilan boshqa fuqarolar aloqasining mavjudligi; mansabdor shaxslarning o'z mansabini suiiste'mol qilishi; huquqiy nigilizmning avj olishi; oilada ota-onalarning harakatda qonunlarni ongli ravishda ataylab buzish; qonunlarni mensimaslik, qonunning mohiyatini yaxshi tushunmaslik va hokazolar»¹. Bunday salbiy omillar yarashuv institutiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, albatta.

Yuqoridagi holatlar yarashuvchi-vositachi (mediator) faoliyatini yo'lga qo'yishni talab qiladi. Ammo O'zbekistonda bunday yarashuvchi (mediator)larning faoliyati qonuniylashtirilmagan. Agar bu shaxslarning yarashuv munosabatlarida ishtiroki ta'minlansa (albatta, qonun yo'li bilan), ular tergov, surishtiruv, prokuratura, sud, ayblanuvchining himoyachisi, voyaga yetmagan ayblanuvchining qonuniy vakillari (ota-onasi, vasiy, homiylari) bilan hamkorlik qilishi lozim bo'ladi. Yarashuvchi (mediator)dan jinoyat va jinoyat-protsessual normalardan yaxshi xabardor bo'lish talab qilinadi, chunki ular fuqarolik va fuqarolik-protsessual normalardan farqli o'laroq, imperativ xususiyatga ega.

Demak, yarashilganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jarayonida yarashuvchi (mediator)ni joriy etish mazkur institutning ahamiyatini yanada yuqori pog'onaga ko'tarib, ham jinoyat sodir etgan shaxs, ham jabrlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza etishga yordam beradi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, bir qator xorijiy davlatlar, jumladan Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Tojikiston, Moldova, Belarus, Armaniston, Ozarbayjon, Gruzin, Qozog'iston jinoyat qonunchiligi tahlili ularda yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin bo'lgan jinoyat tarkiblari moddama-modda sanab o'tilmasdan, umumiy ko'rinishda berilganligini ko'rsatadi. Ya'ni ushbu davlatlarning Jinoyat kodekslariga

¹ *Хамраев А. А. Судьяларнинг касбий ҳуқуқий онги (назария ва амалиёт).* – Т., 2003. – Б.34.

ko'ra ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan barcha jinoyatlar uchun yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish qo'llanilishi mumkin¹.

Yarashuvni taktik va uslubiy jihatdan ta'minlash masalasini hal qilish uchun G'arbda mavjud bo'lgan huquqni tiklash odil sudlov modellari to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirish maqsadga muvofiqdir.

Huquqni tiklash bo'yicha odil sudlov modellari ikki turdan iborat. Uning birinchi turi jabrlanuvchi bilan huquqbuzar o'rtasida yarashuvga ega bo'lish. Mazkur yarashuv dasturi bevosita politsiya, prokuror yoki sud tomonidan yo'naltirilishi mumkin. Ishni yarashuv shaklida hal qilish to'g'risidagi qarorga kelib, uni yarashuv dasturi bo'yicha amalga oshiradilar va bu harakatlar bevosita nodavlat tashkiloti yoki probatsiya xizmati tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun maxsus tayyorgarlik ko'rgan vositachi, u na jabr ko'rgan va na huquqbuzarning manfaatlarini ko'zlamagan xolis shaxs sifatida, avvalo jabr ko'rgan va jinoyatchi bilan alohida uchrashadi, sodir etilgan jinoyat to'g'risida ularning fikr-mulohazalarini eshitadi, savollarga javob beradi va ularning har biridan yarashuv jarayonini amalga oshirish to'g'risidagi niyatlarini aniqlaydi. Agar ikki taraf bunga rozilik bildirsa, vositachi (vositachi) ularning uchrashuvini tashkil etadi. Jabr ko'rgan shaxs huquqbuzarning jinoyat to'g'risidagi fikrini eshitadi va unga har qanday savollar berish imkoniga ega. Shundan so'ng jabrlanuvchi o'zining hissiyoti va fikrlarini ochiq-oydin bayon qiladi. Huquqbuzar bu fikrlarni bevosita eshitadi. Bunday uchrashuv sodir etilgan voqea to'g'risida gapirib berish, o'z fikrlarini bildirish, barcha savollarga tegishli javoblar olinishiga imkon yaratadi. Shundan so'ng taraflar jinoyatdan ko'rilgan zararni bartaraf etish to'g'risida yozma shartnoma (kelishuv) tuzadilar. Zararni qoplash vositasi pul, biror-bir ish yoxud narsa bo'lishi mumkin. Shartnoma (kelishuv) ishni yarashuvga yuborgan organga yuboriladi, agar bu ish bevosita suddan yuborilgan bo'lsa, bu holda mazkur shartnoma hukmning bir qismi sifatida tan olinadi. Agar ish politsiya yoki prokurordan kelgan, shuningdek mazkur shartnoma muvaffaqiyatli ravishda bajarilgan bo'lsa, jinoyat ishi tugatiladi.

Mazkur dastur bo'yicha jiddiy tadqiqotlar G'arbda har xil mamlakatlarda o'tkazilgan². Agar jabr ko'rgan shaxs va huquqbuzar uchrashuvga

¹ Қаранг: *Мухторов Н.* Ярашув институти такомиллашмоқда // Қалқон. – 2009. – 7 июль. – Б.2–3.

² АҚШ, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Yaponiya mamlakatlarida jabrlanuvchi va huquqbuzarlar o'rtasidagi yarashuv dasturlari mavjud, zotan bu jinoyatchilar og'ir jinoyatlar sodir etgan hollarda ham yarashuv asosida ozod etiladilar. Qarang: *Абдухаликов М.А.* Процесс примирения по уголовному и уголовно-процессуальному законодательству Республики Узбекистан и международная практика //

rozi bo'lsalar, bu holda 90 foiz hollarda yarashuv to'g'risidagi shartnoma tuziladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, shartnomalar 80 dan 90 foizgacha bajarilgan. Jabrlanuvchilar bunday shartnomalardan nihoyatda katta qoniqishga ega bo'lib, qo'rqish darajalari pasayib borgan, bu esa huquqbuzar tomonidan kelajakda qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirgan.

Xitoy Xalq Respublikasida yarashuv institutini kuzatadigan bo'lsak, yarashuv komissiyalari shaharlarda (uchastkalar yoki kvartallar bo'yicha), qishloq hududlarida tashkil etilgan. Ular tarkibida 3 nafardan 11 nafargacha a'zo bo'lishi mumkin. Shaharlarda, odatda, yarashuv komissiyalari a'zolari xalq quyi hokimiyat organlari boshchiligida aholi vakillari tomonidan, qishloq hududlarida esa xalq vakillari kengashlari tomonidan saylanadilar. Yarashuv komissiyalari faoliyati ustidan tegishli xalq sudi nazorat olib boradi. Bunda sud yarashuv komissiyasi tomonidan chiqarilgan qarorni bekor qilish yoki o'zgartirish huquqiga ega.

Ruminiya Respublikasida yarashuv komissiyalari qishloq, shahar va tuman ijroiya qo'mitalari qoshida amal qiladi. Bunda har bir ijroiya qo'mitada bir yoki undan ortiq yarashuv komissiyalari tuzilishi mumkin. Yarashuv komissiyalari tegishli kengashning 2 nafar deputati va qishloq o'qituvchisidan yoki o'rta maktab o'qituvchisidan iborat bo'ladi va xalq kengashining ijroiya qo'mitasi tomonidan tayinlanadi. Deputatlardan biri komissiya raisi etib saylanadi. Komissiya ish yurituvchi yuqoridagi organ ijroiya qo'mitasi tomonidan tayinlangan kotib tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, kotib jabrlanuvchilarning shikoyatlarini qabul qiladi, taraflarni komissiya majlisiga chaqiradi, komissiya majlislari bayonnomalarini yuritadi. Yarashuvga erishilgan taqdirda yarashuv komissiyasi qaror chiqaradi. Bu qarorda sodir etilgan jinoyat oqibatida yetkazilgan moddiy zararining qoplanishi nazarda tutilishi mumkin. Yarashuv bayonnomada qayd etiladi. Yarashuvdan voz kechish yoki taraflar majlisga kelmagan holatda bu haqda bayonnoma tuziladi va ushbu bayonnoma jabrlanuvchining sud instansiyasiga murojaat qilishi uchun asos bo'lishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasida yarashuv institutini ko'rib chiqish vakolati «mirovoy sudya»larga berilgan, shuningdek ular xususiy ayblovlar bo'yicha ishlarni ko'radilar. Jabrlanuvchilar sudlanuvchilar bilan birgalikda yarashuv kelishuviga rozi bo'lishdan xoli emas¹. Mazkur tartib Rossiya Federatsiyasi JPKning 25-moddasida qayd etilgan¹.

Суд-хуқуқ ислоҳоти: назария ва амалиёт: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2001. – Б. 10.

¹ Qarang: *Кристи Н.* Конфликт как собственность // Правосудие по делам несовершеннолетних. Перспектива развития. Впуск 1. – М., 1999; *Максудов Р.*,

Endi Yangi Zelandiya modelini ko‘rib chiqsak. Bu model Avstraliya va Yangi Zelandiyada yuzaga kelgan bo‘lib, «oilaviy anjuman» deb ataladi. Bunday institut zamonaviy huquqiy tizimning yuzaga kelishidan avval ham mavjud bo‘lgan. 1980-yillarda Yangi Zelandiyada voyaga yetmaganlar odil sudlovining inqirozi yuz berib, unga ishonch pasayib borgan. Yangi Zelandiyaning mahalliy aholisini tashkil etuvchi maori qabilasi zamonaviy odil sudlov ular uchun begona ekanligini ta’kidlashgan. 1989-yili Yangi Zelandiyaning yuvenal odil sudlov tizimi o‘zgartirilgan. Hozirgi paytda juda kam ishlar sudga yuborilmoqda. Sudyalarning ta’kidlashlaricha ular har kungi ish vaqtlarini sud xonasida o‘tkazsalar-da, biroq bir haftada faqat yarim kun odil sudlov bilan shug‘ullanadilar, chunki ishlarni sud emas oilaviy anjumanlar ko‘radi. Anjumanni ijtimoiy xodim amalga oshiradi. Bu anjumanda nafaqat jabrlanuvchi va huquqbuzar, balki ularning oila a‘zolari ham ishtirok etishi mumkin. Mazkur yig‘inda, shuningdek, huquqbuzarning himoyachisi va politsiya xizmatchisi ham ishtirok etadi. Yangi Zelandiyada asosan politsiya ayblov rolini bajaradi. Ishtirokchilar yarashuv bitimida ko‘rsatilgan harakatni amalga oshiradilar: vujudga kelgan jinoyat voqeasi va uning oqibatlari to‘g‘risida gapiradilar, hissiyotlari, fikrlarini bildirib, o‘zlarining savollariga javob oladilar. Shundan so‘ng huquqbuzar o‘z oilasi bilan xonadan chiqib, vujudga kelgan vaziyat to‘g‘risida kelishib, o‘zlarining takliflari bilan xonaga qaytib keladilar. Ular qaytib kirganidan so‘ng ishtirokchilar qabul qilingan qarorni muhokama qilish huquqiga egalar. Qarorda ko‘pgina masalalar hal etilishi lozim. Jumladan, gap nainki zararni qoplash, balki huquqbuzarni turmaga borish-bormasligi yoki biror-bir rehabilitatsiyada ishtirok etish majburiyatiga ega bo‘lish va boshqa savollarni hal etilishiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu hodisaning taajjublanarli tarafi shundan iboratki, ishtirok etuvchi barcha qatnashchilar, ya’ni jabrlanuvchi, huquqbuzar, ularning oilalari, himoyachi va politsiya zobiti mazkur takliflarga rozilik bildirishi kerak.

Mazkur amaliyot qo‘llanilayotgan Yangi Zelandiyada vaziyat quyidagicha, ya’ni huquqbuzarlik sodir etgan 80% yosh voyaga yetmaganlarning ishlari yarashuv muhokamasigacha olib borilmasdan tugatiladi hamda bu ishlar bilan bevosita politsiya shug‘ullanadi. Yangi Zelandiyaning poytaxti Vellingtonda muhokamalarni olib boruvchi xizmatchilar mahallalarning bevosita muammolarini o‘rganib boradilar. Ular kichik jamoalardagi muam-

Флямер М., Грасенкова А. Институт примирения в уголовном процессе: необходимость и условия развития // Правозащитник. – 1998. – №2; *Максудов Р., Флямер М.* Примирение в уголовном правосудии России. – М., 1999.

¹ Qarang: Уголовный процесс: Учебник / Под общ. ред. В.И.Радченко. – М., 2003. – С. 498.

molar bilan bog‘liq muhokamalarni o‘tkazish vakolatiga egalar. Bunday chora-tadbirlar voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi jinoyatchilikning 50 foizga kamayishiga sabab bo‘lgan. Avval voyaga yetmaganlar orasidagi jinoiy guruhlar muammo bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi paytda bu muammo hal bo‘lgan. Politsiyaning ishi faqat giyohvandlik moddalarini qidirishdan iborat, chunki yagona jinoyat turi – giyohvandlik moddalarini saqlash jinoyati qolgan, xolos.

Umuman olganda, hozirgi kunda yarashuv instituti 40 ga yaqin xorijiy davlatlarda amal qiladi. Ayrim davlatlarda bu institut (jarayon) yarashtiruvchilik deb ataladi (Rossiya, Yangi Zelandiya, Bolgariya, AQShning ayrim shtatlari), boshqa davlatlarda kelishuv (Germaniya, Ruminiya, Turkiya va h.k.), yana boshqa bir davlatlarda taraflarning dastlabki tergovdagi kelishuvi deb yuritiladi. Jumladan, Germaniyada yarashuvchilik yarashuv kamerasida maxsus sudya tomonidan amalga oshiriladi. Maxsus sudya 3 yil muddatga tuman sudi direktori bilan kelishgan holda jamoat kengashi taqdimnomasiga binoan mahalliy jamoa yoki shahar tumanida saylanadi. Bu sudyaning faoliyati yuzasidan shikoyatlar okrug adliya boshqarmasida ko‘rib chiqiladi.

Yuqorida milliy qonunchiligimiz va ayrim xorijiy mamlakatlarda yarashuv institutini qo‘llash bilan bog‘liq normalarni tahlil qildik. Bundan asosiy maqsad xorijiy mamlakatlarda yarashuv institutining amal qilish doirasi qay darajada ekanligini, uni qo‘llash tartibini hamda yarashuv taktikasi va metodikasini o‘rganish, ularda mavjud ijobiy jihatlarni milliy qonunchiligimizga tatbiq etishdan iborat edi. Shulardan kelib chiqqan holda, bizningcha, yarashuv taktikasi va metodikasini rivojlantirish quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini ko‘rsatadi:

1. Tayyorlov bosqichi:

- sudya yarashuv to‘g‘risidagi ish bilan tanishib chiqadi;
- sud muhokamasida yarashuvni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishtirokchilarni sudga taklif qiladi (jabrlanuvchi, jinoyatni sodir etgan shaxs, uning himoyachisi, jabrlanuvchining vakili, ularning qarindoshlari, guvohlar, prokurorni va hokazo);
- qonun talabi dastlabki tergovda qay darajada bajarilganligini tekshiradi.

2. Dastlabki uchrashuvlarni o‘tkazish:

- jabrlanuvchi va jinoyat sodir etgan shaxsni suhbatga chaqirish;
- huquqbuzar, jabrlanuvchi yoki ziddiyatda ishtirok etgan taraflar uchun ehtimolga ega bo‘lgan rehabilitatsiya chora-tadbirlarini belgilash

hamda zararni bartaraf etilishini ta'minlash. Bunday hamkorlik har xil shakllarga ega bo'lishi mumkin, masalan:

– jabrlanuvchi va jinoyat sodir etgan shaxs jinoyat voqeasiga nisbatan fikr almashadilar va bir-birini yaxshi bilib olish niyatida yuzma-yuz gaplashadilar;

– jinoyat sodir etgan shaxs o'z kechirimlarini bayon etib, yarashuvga rozi bo'lishi to'g'risida jabrlanuvchidan so'raydi hamda zararni qoplash yo'llari to'g'risida fikr yuritadi;

– jinoyat sodir etgan shaxs tomonidan jinoyatdan ko'rilgan zararni qoplash maqsadida biror-bir harakatni amalga oshirishga tayyorligini bildiradi yoki biror-bir rehabilitatsiya dasturida ishtirok etishga rozi bo'ladi;

– jabrlanuvchi va jinoyat sodir etgan shaxs o'rtasidagi ziddiyat hal etiladi;

– jabrlanuvchi va jinoyat sodir etgan shaxs yarashuv bo'yicha o'z ixtiyoriy qarorlarini sudyaga ma'lum qiladi va shu asosda jinoyat ishining tugatilishni taklif qilinadi.

Bunday vositachilik sudya tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Har qanday holatda taraflarning bu uchrashuvda ishtirok etishi ixtiyoriy, vositachining bu jarayonga yondashuvi esa xolisona bo'lishi talab etiladi.

HUQUQNI TIKLOVCHI ODIL SUDLOV – YARASHTIRUV INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHI

Hozirgi paytda jabrlanuvchilarning huquqlarini tiklovchi odil sudlov aksariyat mamlakatlarda jinoyat sudlovi ishlarini yuritishning yangi modeli – jinoyat natijasida yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etishga mutlaqo yangicha yondashuv sifatida qaralmoqda. Bir tomondan u jazo choralari qo‘llashni cheklashga, boshqa tomondan esa nizoli vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish, huquqbuzarlarni tarbiyalash, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni mo‘tadillashtirish hamda bu faoliyatga mahalliy jamoatchilikni jalb qilishga qaratilgan.

F. Bagautdinov va S.F. Бычковаarning fikricha, bu jinoiy jazo bilan bog‘liq bo‘lmagan, biroq ushbu nizo ishtirokchilari murosaga erishishiga, ya‘ni jabrlanuvchi va jinoiy jazo olishga loyiq jinoyatchi orasidagi munosabatlarni u yoki bu darajada qayta tiklashga qaratilgan faoliyatdir¹.

Odil sudlovning qayta tiklashga qaratilgan bir necha modellari yoki shakllari ma‘lum. Ulardan eng ko‘p tarqalgani jabrlanuvchi va huquqbuzarning yarashuvi, aniqrog‘i, jinoyat qurboni va huquqbuzarning yarashuv dasturi hisoblanadi. Bu jinoyat sudlovi ishlarining xususiy asoslarini, boshqacha qilib aytganda, xususiy shaxslarning xatti-harakatlari erkinliklarini kengaytirishni nazarda tutadi. Bu yerda so‘z, asosan, jabrlanuvchi va gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchi haqida bormoqda. Qonun chiqaruvchi xususiy shaxslar xatti-harakatlari erkinligining muayyan chegaralarini o‘rnatadi. Xususiy shaxs o‘z ixtiyoriga ko‘ra, o‘zining protsessual huquqlaridan foydalanish mumkin bo‘lgan shart-sharoitlar va holatlarni belgilaydi. Xususiy ayblov ishlarining o‘ziga xosligi shundaki, qonunda nazarda tutilgan ommaviy ayblov vositalaridan foydalangan holda manfaatdor shaxslarning xususiy manfaatlari hal etiladi.

So‘nggi yillarda qonun chiqaruvchi bu yo‘nalishda muayyan qadamlarni qo‘ydi. Xususan, xususiy ayblov ishlari bo‘yicha ish yuritish isloh qilinmoqda, ommaviy ayblovning amal qilish sohasi qisqartirilmoqda. Ayni paytda, shuni ta‘kidlash lozimki, bu jarayon asosan xususiy ayblov ishlari bo‘yicha ish yuritishga daxldordir. Biroq, xususiy ayblov jinoyat protsessidagi xususiy asoslar namoyon bo‘lishining bir ko‘rinishidir.

¹ Каранг: *Багаутдинов Ф.* Расширение частных начал в уголовном процессе // *Законность.* –2001. – №4. – С. 32–34; *Бычкова С. Ф.* Процессуальные и организационные аспекты института примирения по уголовным делам / В сб.: *О проблемах правоприменительной практики освобождения от уголовной ответственности в связи с примирением.* – Астана. – 2006. – С. 26.

Xususiy ayblovga taalluqli ishlar toifasini kengaytirishga ish bo'yicha hal qiluv qarorini qabul qilishga ta'sir ko'rsatish imkonini beruvchi huquqlarni berish orqali erishish mumkin¹. Boshqacha qilib aytganda, o'zining protsessual huquqlaridan erkin foydalanish jinoyat protsessining boshlanishi, amalga oshirish va tugatilishini belgilovchi qonun normalari jinoyat ishlarini yuritishda dispozitivlik prinsipini mavjudligini belgilaydi.

E'tirof etish lozimki, xorijiy davlatlarda xususiy ayblov ishlari bo'yicha sudlov ishlarining o'ziga xos xususiyatlari har xil talqin qilinadi. MDH davlatlari tomonidan qabul qilingan JPK modeliga muvofiq, ushbu ishlar bo'yicha jinoiy jazo jabrlanuvchining gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi bilan yarashganda jabrlanuvchining shikoyati bo'lmaganda, xususiy ayblovchi ayblovdan bosh tortganda qo'llanilishi mumkin emas. Bunda JPK modeli, agar prokuror jinoyat natijasida yetkazilgan zararni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga jazo qo'llamasdan bartaraf etish, tuzatish mumkin deb hisoblasa, uncha oxir bo'lmagan va o'rtacha og'irlikdagi jinoyat ishlarini tugatish imkoniyatini nazarda tutadi. Shu bilan birga, JPK modelining yuqorida keltirilgan qoidalari MDH mamlakatlarining jinoyat-protsessual qonunchiligida o'zaro farqlanadi.

Masalan, Qozog'iston Respublikasining 1997-yilgi JPK xususiy ayblov tartibida ko'rib chiqiladigan jinoiy jazolanadigan qilmishlar doirasini kengaytirgan va JPKning 33-moddasiga muvofiq sog'liqqa qasddan yengil zarar yetkazish, sog'liqqa ehtiyotsizlik oqibatida zarar yetkazish, jinsiy tajovuz, nomusga tegish, zo'rlik ishlatish, jinsiy aloqa qilishga majbur qilish, besoqolbozlik yoki jinsiy xarakterdagi boshqa xatti-harakatlar, tuhmat, haqorat qilish, bolalarni yoki mehnatga layoqatsiz ota-onalarni ta'minlash uchun to'lovlardan g'arazli maqsadlarda bo'yin tovlash, mehnatga layoqatsiz er yoki xotinni ta'minlashdan qasddan bo'yin tovlash, shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi, vrachlik sirlarini oshkor qilish, turar-joy daxlsizligining buzilishi, ehtiyotsizlik oqibatida o'zgarar mulkini nobud qilish yoki zarar yetkazish, transport vositalarini boshqaruvchi shaxslarning yo'l qoidalari va transport vositalaridan foydalanish qoidalari buzishi, transport vositalarining ishlash xavfsizligini ta'minlovchi qoidalarning buzish kabi jinoyatlar uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari, jabrlanuvchining shikoyatisiz ish qo'zg'atish, biroq mumkin bo'lgan 20ga yaqin jinoyatlar tarkibi kengaytirilgan. Xususiy ayblov ishlarini ko'rib chiqish Qozog'iston Respublikasi JPKning 302-moddasida nazarda tutil-

¹ Каранг: *Воронин В.* Производство по делам частного обвинения в государствах содружества // Вестник МГУ, серия Право. – 1999. – №5. – С. 15.

gan sud muhokamasining umumiy qoidalari asosida amalga oshiriladi. Biroq, bunda bir qator o'ziga xos xususiyatlar mavjud:

– xususiy ayblovchi yoki uning vakilining sud majlisiga uzrli sababsiz kelmasligi ishning tugatilishiga olib keladi (Qozog'iston Respublikasi JPK 393-moddasining 7-qismi);

– sudya sud tergovni boshlanishidan oldin tomonlarni yarashtirish choralarini ko'rishga majbur, xususiy ayblov bo'yicha jinoyat ishi qayta qo'zg'atilishi mumkin emas va hokazo.

Qozog'iston Respublikasi JPKning 394-moddasiga muvofiq, sudya ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qilishi mumkin: ayblovchi yoki oqlovchi hukmni chiqaradi, xususiy ayblovchining ayblovdan bosh tortish va tomonlar kelishgan hollarda ishni to'xtatish, ish bo'yicha surishtiruv yoki dastlabki tergov o'tkazish to'g'risidagi masalani hal etish uchun ishni prokurorga yuborish.

Qozog'iston Respublikasi JPKdan farqli o'laroq, O'zbekiston Respublikasi JPKda qonunda belgilangan tartibda jabrlanuvchi deb e'tirof etilgan barcha shaxslarga prokuror bilan birga ayblash huquqi berilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi JPKning 54-moddasiga muvofiq, «jinoyat, xuddi shuningdek, aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi shaxsga ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazgan deb hisoblash uchun dalillar bo'lgan taqdirda, bunday shaxs jabrlanuvchi deb e'tirof etiladi». Ushbu kodeksning 55-moddasi 1-qismiga asosan, «jabrlanuvchi shaxsan o'zi yoki vakili orqali sudda ayblovni quvvatlash huquqiga ega». Bundan tashqari, 345-moddasining 1-qismiga muvofiq, «barcha jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergov o'tkazilishi shart», ya'ni fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni yuksak darajada kafolatlaydigan dastlabki tergovning yagona shakli belgilangan. Jabr ko'rganning shikoyati asosida qo'zg'atiladigan ishlar sifatida qonun chiqaruvchi O'zbekiston Respublikasi JPKning 325-moddasiga asosan, JKning 118-moddasi 1-qismi va 119-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan faqat ikkita jinoyat tarkibini kiritgan.

Belarus Respublikasining 1999-yilgi JPKda xususiy ayblov tartibida ko'rib chiqiladigan qilmishlar doirasi ancha keng belgilangan. Jabrlanuvchining shikoyati asosida qo'zg'atiladigan xususiy ayblov ishlari qatoriga yarashilganligi sababli tugatilishi mumkin bo'lgan Belarus Respublikasi JKning 15 ta moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar kiritilgan. Xususiy-ommaviy ayblov ishlari qatoriga JKning 15-moddasida nazarda tutilgan, biroq tomonlar yarashuvi ishning tugatilishiga olib kelmaydigan jinoyatlar kiritilgan. Bunda prokurorga jabrlanuvchining arizasi mavjud bo'lmagan taqdirda ham jinoyat ishini qo'zg'atish huquqi berilgan.

Belarus Respublikasi JPK 26-moddasining 2–4-qismlarida ko‘rsatilmagan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlardan boshqa barcha ishlar ommaviy ayblov ishlari hisoblanadi.

Belarus Respublikasi JPKning 51-moddasida xususiy ayblovchi tushunchasi berilgan. Jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakili jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritishning har qanday bosqichida ayblovdan bosh tortish huquqiga ega bo‘lsa-da, prokuror JPKda nazarda tutilgan hollarda jabrlanuvchining fikridan qat’i nazar xususiy va xususiy-ommaviy ayblov ishlari bo‘yicha ayblovni quvvatlashga haqlidir. Ayni paytda, prokurorning ayblovni rad qilishi jabrlanuvchini ayblovni quvvatlash huquqidan mahrum etmaydi (Belarus Respublikasi JPKning 28-moddasi). Sud ham jabrlanuvchining sudlanuvchi bilan yarashganligi munosabati asosida aybdorni jinoiy javobgarlikdan ozod qilib, jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritishni tugatish huquqiga ega (Belarus Respublikasi JPKning 32-moddasi). Agar sud xususiy ayblov ishi bo‘yicha shikoyat olganidan keyin mutaxassislarining izohlari, xulosalari va boshqa ma‘lumotlarni olish zarurati mavjud deb hisoblasa, u ushbu shikoyatni tekshirish uchun surishtiruv organlariga yuborishga haqlidir (Belarus Respublikasi JPKning 427-moddasi). Bundan tashqari, ayblanuvchi o‘z aybiga iqror bo‘lgan, aybga iqror bo‘lish taraflarning bahsiga sabab bo‘lmagan va sudda shubha tug‘dirmagan holatlarda jinoyat ishlarini ko‘rib chiqishning qisqartirilgan tartibi nazarda tutilgan. Taraflarning roziligiga ko‘ra, sud ayblanuvchining haqiqatan ham o‘z aybiga iqror ekanligini aniqlagandan so‘ng, faqat taraflar ko‘rsatgan dalillarni tekshirish bilan cheklanishga yoxud sud tergovini tugallangan deb e‘lon qilishga va sud muzokarasiga o‘tishga haqli. Bunda sud taraflarga dalillarni o‘rganishni rad qilish hukm ustidan shikoyat qilish yoki protest bildirishga yo‘l qo‘ymaslikka olib kelishini tushuntiradi (Belarus Respublikasi JPKning 326-moddasi).

Qirg‘iziston Respublikasining 1999-yilgi JPKda ham xususiy ayblov tartibida jazolanadigan jinoiy qilmishlar doirasi kengaytirilgan. Masalan, JPKning 26-moddasi 2-qismiga muvofiq, xususiy ayblov ishlari ro‘yxatiga Qirg‘iziston Respublika JKning quyidagi moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar kiritilgan: «Kaltaklash» (110-modda), «Sog‘liqqa qasddan yengil zarar yetkazish» (112-moddaning 2-qismi), «Tuhmat» (127-modda), «Haqorat qilish» (128-modda), «Mualliflik, hammualliflik huquqlari va patent egaligi huquqlarining buzilishi» (150-moddaning 1-qismi), «Tijorat yoki bank sirlarini oshkor qilish» (194-modda). Ushbu toifadagi ishlar bo‘yicha JPKlarning farqlanuvchi jihatlari shundan iboratki, taraflar o‘rtasidagi yarashuv hatto hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar ham yo‘l qo‘yiladi.

Qirg'iziston Respublikasida xususiy-ommaviy ayblov ishlari doirasiga Respublika JKning 10 va 11-moddalarida nazarda tutilgan unchalik og'ir bo'lmagan va kam og'irlikdagi jinoyatlar, shuningdek 129 va 130-moddalarining 1-qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar kiritilgan. Boshqa respublikalar qonunchiligidan farqli o'laroq, Qirg'iziston Respublikasi JPKga asosan, jinoyatdan jabr ko'rganlar xususiy shaxsga jabrlanuvchi tariqasida jinoyat ishini qo'zg'atishni talab qilish, jinoyat sudlov ishlarini amalga oshirishda ishtirok etish huquqi berilgan (JPKning 21-moddasi). Shaxsning jabrlanuvchi deb e'tirof etilishi to'g'risida tergovchi yoki sudya qaror chiqaradi. Bunday qaror faqat zarar yetkazishga olib kelgan jinoyat hodisasi aniqlangandan keyin, uning yoshi, ruhiy va jismoniy holatidan qat'i nazar, qabul qilinadi (JPKning 49-moddasi). Jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakili ish yuritishning istalgan paytida ayblovni quvvatlashdan bosh tortishga haqlidir (JPKning 27-moddasi). Bunda u: ayblanuvchiga qo'yilgan aybning mohiyatini bilish; ko'rsatma berish; dalillarni taqdim etish; iltimosnoma kiritish va rad qilish; sud muzokaralarida ishtirok etish, ayblovni quvvatlash; sudlanuvchi bilan yarashish huquqiga ega (JPKning 50-moddasi).

Qirg'iziston Respublikasi JPKga asosan, xususiy ayblovchi bo'lib xususiy ayblov ishlari bo'yicha sudga ariza bergan shaxslar, shuningdek xususiy va xususiy-ommaviy ayblov ishlari bo'yicha jabrlanuvchi ishtirok etishi mumkin, ular davlat ayblovchisi ayblovdan bosh tortgan hollarda ham sudda ayblovni mustaqil ravishda quvvatlashiga yo'l qo'yiladi (JPKning 51-moddasi). Xususiy-ommaviy ayblov ishlari jabrlanuvchining arizasiga ko'ra qo'zg'atiladi. Ular yuzasidan olib boriladigan tergov va sud tergovi umumiy tartibda amalga oshiriladi (JPKning 159-moddasi).

Yuqorida tilga olingan davlatlarning jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini o'rganish va tahlil qilish natijalari, jinoyat-sudlov ishlarining ochiqligi, ommaviyligi, oshkoraligi va tortishuvga asoslanganligiga qaramay, jinoyatdan jabr ko'rgan (jismoniy va yuridik) shaxslarning huquqlarini kengaytirish va himoya qilinishini ta'minlash kerakli to'g'risida xulosaga kelish imkonini beradi. Bu, avvalo, barcha toifadagi ishlar bo'yicha sud majlisida ularning ayblovni quvvatlash borasidagi huquqlarini, shuningdek, aybdor shaxsni jinoiy javobgarlik va jinoiy jazodan ozod qilish uchun ushbu ayblovdan voz kechish huquqini kengaytirish zarurligini anglatadi. Chunki jismoniy shaxsga aybdorni fosh etuvchi dalillarni to'plash va ayblovni shakllantirish majburiyatining yuklanishi Respublika Konstitutsiyasida kafolatlangan huquqlari buzilishiga olib keladi¹.

¹ Қараңг: Сахаддинов С. М. Суд муҳокамасида жиноят-процессуал ярашувни такомиллаштириш муаммолари: Юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Т. – 2005. – 18 б.

Yuqoridan keltirilgan davlatlar qonunlariga asosan, jabrlanuvchi aybdorni jinoiy javobgarlikka tortilishini istamasa yoxud sudda ayblovni quvvatlashdan bosh tortsa, xususiy ayblov ishlari bo'yicha aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emasligi va bunga yo'l qo'yilmasligi shaklidagi qoidaning inkor etilishi davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi jinoiy-huquqiy majmui haqida so'z ketganda shuni ta'kidlash joizki, jabrlanuvchi va gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi va sudlanuvchi o'rtasidagi yarashuv munosabati bilan jinoyat ishini tugatish (JKning 66-moddasi), unga o'xshash bo'lgan xususiy ayblovni tartibga soluvchi institutdan farqlanadi. Bu farq shunda ko'rinadiki, birinchidan, JPKning 325-moddasida jabrlanuvchiga jinoyat ishini qo'zg'atish yoki uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasini hal etish huquqi berilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar doirasi belgilangan. Unda ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga kiritilgan jinoyatlar sodir etilganda JKning 66¹-moddasi qo'llanilishi qayd etilgan.

Ikkinchidan, xususiy ayblov ishlari bo'yicha jabrlanuvchining aybdorni jinoiy javobgarlikka tortishni so'rab bergan arizasining yo'qligi huquqni qo'llovchi uchun aybdorni jinoiy jazodan ozod qilishda qat'iy asos bo'lib xizmat qiladi. Jinoiy-huquqiy institut uchun jabrlanuvchi bilan yarashuv faktining o'zi sud tomonidan jinoyat ishini tugatish uchun zarur bo'lgan shartlardan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, shaxsni xususiy ayblov ishlari bo'yicha jinoiy javobgarlikdan ozod qilishda aybdordan yetkazilgan zararni qoplash yoki jinoyatdan jabr ko'rganga yetkazilgan ziyonni bartaraf etish talab etilmaydi. O'z navbatida, yarashuv ishlari bo'yicha ishni tugatishda zararni qoplash jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun majburiy shartlardan biri hisoblanadi.

Bunda ma'naviy, moddiy va jismoniy ziyonni bartaraf etish shakli aniq belgilanmagan. Bu masala taraflarning yarashuvi institutini amalga oshirish jarayonida alohida dolzarblik kasb etadi. Masalan, ma'naviy zarar ikki usulda bartaraf etilishi mumkin: birinchisi – jabrlanuvchi bilan yarashuvga yo'naltirilgan jinoyatni sodir etgan shaxsning ijobiy xatti-harakatlari: kechirim so'rash, iltimos qilish orqali; ikkinchisi – ma'naviy zararni moddiy (avvalo, pul bilan) shaklda o'rnini to'ldirish. Bu zarar yetkazgan shaxs tomonidan o'z zimmasiga olingan tegishli majburiyatlar bilan bog'liq taraflar o'rtasidagi fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaradi.

Jismoniy zararni, qoida tariqasida, nomulkiy shaklda umuman qoplash mumkin emas. Jismoniy zararni qoplash, odatda, jabrlanuvchining dori-

darmonga, sogʻligʻini tiklashga ketgan sarf-xarajatlarni qoplash shaklida amalga oshiriladi. Bu ham oxir-oqibat sogʻliqqa yetkazilgan zararni qoplash majburiyati bilan bogʻliq tomonlar oʻrtasida fuqaroviy-huquqiy munosabatlar mavjudligi toʻgʻrisida fikr yuritish imkonini beradi. Pirovard natijada jismoniy va maʼnaviy ziyonni qoplash, albatta, mulkiy zarar bartaraf etilishini jinoiy javobgarlikdan ozod qilish sharti sifatida belgilanishiga olib keladi.

Yuqorida bayon etilganlar jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash taraflarning yarashuvi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning muhim shartlaridan biri ekanligi haqida xulosa qilishga imkon beradi. Aynan shuning uchun ham unga qilmish uchun javobgarlikning bir shakli sifatida qarash lozim. Zararni bartaraf etish shikast yetkazilgan mol-mulkni tiklash, oʻgʻirlangan mol-mulkni qaytarib berish yoki qiymati unga teng boʻlgan mol-mulkka almashtirish, pul tovonini toʻlash, dori-darmon, sanatoriya va sihatgohlarga yoʻllanmalar olib berish, jabrlanuvchidan kechirim soʻrash va qonunda taqiqlanmagan boshqa shakllarda ifodalanishi mumkin.

Biroq, bular zararni bartaraf etishning mumkin boʻlgan yoʻli va usullarining toʻliq roʻyxati emas. T. YE. Sorsenbayevning fikricha, zararni qoplashning oʻlchami va xususiyati jabrlanuvchi manfaatlari qondirilishining darajasiga toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliq boʻladi¹. Jabrlanuvchi moddiy yoki maʼnaviy zarar qoplanishi, shuningdek, boshqa manfaatlari qanoatlantirilishdan manfaatdor boʻlishi lozim. Jabrlanuvchining boshqa manfaatlari sirasiga, avvalo, biror bir xizmat, masalan, ishga joylashtirish, xizmat mavqeining oshirilishi, biror-bir qimmatbaho buyumni sotib olishga, muammoli masalalarni hal etishda yordam berish va boshqalar, yaʼni baʼzan hal etilishi noqonuniy xususiyatga ega boʻlgan masalalarni qondirish kabilarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, aybdor shaxs qoplashi lozim boʻlgan zararlarga nafaqat toʻgʻridan-toʻgʻri, balki jinoyat bilan bogʻliq boʻlgan bilvosita yoʻqotishlarni, jumladan dastlabki tergov va sud-da ishtirok etish bilan bogʻliq xarajatlarni ham kiritish maqsadga muvofiq.

Sud-tergov amaliyotini oʻrganish shuni koʻrsatadiki, jabrlanuvchilar yetkazilgan zararining moddiy jihatdan qoplanishidan koʻproq manfaatdordirlar.

Shuni ham eʼtiborga olish lozimki, jabrlanuvchi yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqidan voz kechishi ham mumkin. Shunday hol-lar ham uchraydiki, undan qilmish uchun kechirim soʻrashning oʻzi yetarli

¹ Каранг: Сорсенбаев Т. Е. Правовое основание и условие освобождения от уголовной ответственности в связи с примирением потерпевшим / В сб.: О проблемах правоприменительной практики освобождения от уголовной ответственности в связи с примирением. – Астана, 2006. – С. 67.

bo'ladi. Demak, jabrlanuvchining jinoyat sodir etgan shaxs bilan yarashuvi yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq bo'lmasligi ham mumkin.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat ishlarini tugatish shartlari deganda, avvalo, taraflarning yarashuvini, ikkinchidan, aybdor (jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadigan shaxs) tomonidan yetkazilgan zarar oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlarni ijro etish maqsadida jabrlanuvchi foydasiga muayyan xatti-harakatlar (mol-mulkni o'tkazish, ishlarni bajarish, pul to'lash va h.k.)ni bajarish tushuniladi.

Biroq, agar taraflar o'rtasida majburiy-huquqiy munosabatlar mavjud bo'lsa, unda aynan qo'llanilishi lozim bo'lgan «Majburiyatlar to'g'risidagi umumiy qoidalar»ning boshqa normalarini hisobga olish kerak. Shuni ham unutmaslik lozimki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida noqonuniy majburiyatlarni tugatishning nisbatan yangi asoslari ifodalangan. Agar so'z qarzni kechish instituti to'g'risida borsa, u Fuqarolik kodeksi-ning 348-moddasida quyidagicha ifodalangan: «Kreditor qarzlarni uning zimmasidagi majburiyatlardan ozod qilishi bilan, agar bu hol boshqa shaxslarning kreditor mol-mulkiga nisbatan huquqlarini buzmasa, majburiyat bekor bo'ladi».

Yuqorida ko'rsatilgan normalar bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslari tariqasida jinoyatdan yetkazilgan zararni majburiy qoplash to'g'risidagi JKning imperativ talablari o'rtasidagi munosabat qanday?

Deylik, jabrlanuvchi o'zini «xafa qilgan odam» bilan yarashdi, uning qarzidan voz kechdi va jinoyat ishini tugatishni so'radi. Bunday vaziyat yuzaga kelishi aniq, chunki aksariyat jinoyat ishlarida jabrlanuvchi er-xotinlar, qarindoshlar, qo'shnilar va boshqalar hisoblanadi. Masalani hal etishning ikki yo'li bor: zarar qoplanmaganiga qaramasdan (JKning 66¹-moddasida nazarda tutilgan shartlardan birining mavjud bo'lmasligiga) jabrlanuvchining iltimosi vakolatli organlar tomonidan qondiriladi yoki rad etiladi (bunday holatlarda jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi).

Hamma gap shundaki, taraflarning yarashuvi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish sudlarning majburiyati emas, balki huquqidir¹. Demak, gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchining muayyan qilmishi va shaxsiyat hisobga olingan holda sud jinoyat ishini tugatish fuqarolar (nafaqat jabrlanuvchilar), jamiyat va umuman davlatning jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga daxl qilmaydi, degan xulosaga kelin-

¹ Горичева И. Л. Институт примирения в уголовном процессе: необходимость и условия развития / Материалы научно-практической конференции. – М., 2001. – С. 62.

gandagina yarashuv bo‘lishi mumkin. Aks holda, JKning 66¹-moddasiga asosan, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkin emas. Shu bilan birga, ommaviy-huquqiy nuqtai nazardan, jabrlanuvchi o‘zining qarzdand kechish huquqini qo‘llaganda va zarar faktik jihatdan qoplanmagan bo‘lsa, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishga hech qanday asos yo‘q.

Fuqarolik qonunchiligining yuqorida ko‘rsatilgan normasini qo‘llash orqali jinoyat ishini tugatishda jabrlanuvchi jinoiy qilmish oqibatida yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini tugatishga olib keladigan qarzdand voz kechishining yuridik oqibatlarini hisobga olinganligi va bunday holatda o‘z-o‘ziga hisob berishga qodir ekanligi aniqlanishi shart. Jabrlanuvchining qarzdand ixtiyoriy ravishda, ya‘ni jinoyat sodir etgan shaxs tomonidan jismoniy yoki ruhiy tazyiqsiz voz kechayotganiga ishonch hosil qilish lozim.

Shu bilan birga, qarzdand voz kechishni huquqni amalga oshirishdan bosh tortishdan farqlash lozim. Jabrlanuvchining irodasi qarzdand voz kechishga, ya‘ni qarzdorning majburiyatini tugatishga yo‘naltirilmagan ham bo‘lishi mumkin. U muayyan paytda «zararni qoplash» bo‘yicha talab qo‘yishdan voz kechishi, biroq da‘vo muddati davomida da‘vo qilish imkoniyatini saqlagan holda qarzdor tarafning majburiyatni bajarishini talab qilishga haqli. Bunday hollarda jabrlanuvchining xohish-irodasini hisobga olgan holda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutini qo‘llashga ham hech qanday to‘siq mavjud emas.

JPKning 84-moddasi 4-qismi bo‘yicha jinoyat ishlarini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilishda sud o‘z ajrimida yetkazilgan zarar qoplanmaganligining yuridik asosini ko‘rsatishi lozim. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining muayyan normasiga havola qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar havola qilinmasa, jabrlanuvchi kelgusida fuqarolik-sudlov ishlari tartibida da‘vo qilishga haqli bo‘ladi, ikkinchi holatda – u bunday huquqdan mahrum bo‘ladi, chunki qarzdand voz kechish majburiyatni tugatishga asos hisoblanadi. Jabrlanuvchining haqiqiy xohish-irodasi bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyat jabrlanuvchining ixtiyoriy idroki bilan harakat qilayotganligidan dalolat beruvchi faktlar bilan birga tasdiqlanishi lozim.

Shunday qilib, agar taraflarning yarashuvi JKning 66¹-moddasi asosida jinoyat ishini tugatishning majburiy sharti hisoblansa, unda «zararning qoplanishi» qo‘shimcha shart xususiyatiga ega, chunki jabrlanuvchi qarzdand voz kechish (to‘liq yoki qisman) yoki zararni qoplashni talab qilish huquqini amalga oshirishdan voz kechishga haqlidir. Bunda ham, boshqa holatlarda ham taraflarning yarashuvi munosabati bilan jinoiy ta‘qibni tugatish uchun hech qanday to‘siq yo‘q. Jabrlanuvchi bilan yarashuv nati-

jasida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish nafaqat yetkazilgan zarar qisman qoplangan holatlarda, balki mulkiy zarar umuman bartaraf etilmagan (jinoiy qonuni atamasi bilan aytganda «qoplanmagan») hollarda ham yo‘l qo‘yiladi.

Jabrlanuvchi bilan yarashish natijasida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga faqat ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha yo‘l qo‘yiladi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs JKning 66¹-moddasiga asosan jinoiy javobgarlikdan u shu moddada nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etgan bo‘lsa, ozod qilinishi mumkin. Aynan shunday jinoyat-protsessual institut (xususiy ayblov) ilgari har qanday ko‘rinishdagi jinoyat (JPKning 84-moddasi, 1-qismi, 6-bandi), jumladan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatni sodir etgan shaxsni ham jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga yo‘l qo‘yadi va bunda sudlanganlikni bekor qilish yoki olib tashlash huquqiy ahamiyatga ega emas.

Jinoyat kodeksi 118 va 119-moddalarining 1-qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to‘g‘risida qaror qabul qilishga na uning shaxsi haqidagi salbiy tavsifnoma, na qoplanmagan zararning mavjudligi ta‘sir o‘tkazmaydi. Agar jabrlanuvchining aybdorga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atish so‘ralgan arizasi bo‘lmasa, yarashuvni amalga oshirish mumkin emas va tegishli organlar hamda mansabdor shaxslarga shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasini muhokama qilish qonunan taqiqlangan.

JKning 66¹-moddasiga kelsak, «shaxs... jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin» so‘z birikmasini qo‘llash surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yuqorida keltirilgan asoslarni qo‘llash imkonini beradi. Aniqrog‘i, jabrlanuvchining jinoyat sodir etgan shaxs bilan yarashuviga qaramasdan, ushbu vaziyatda ish bo‘yicha oxirgi qarorning qabul qilinishi mansabdor shaxsning xohish-irodasiga bog‘liq.

Aybdorni JPKning 84-moddasi 4-qismini qo‘llab, JKning 66¹-moddasi asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun shaxs tomonidan JK 66¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etganligi, aybini tan olganligi, ziyonni qoplaganligi yoki yetkazilgan zarar bartaraf etilganligi, ya‘ni jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan taraflarning yarashuvi munosabati bilan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish uchun yuridik asosdan tashqari, qo‘shimcha talablarni bajarish kerakligi shaxsning aybini yengillashtiruvchi holatlar yig‘indisi mavjud bo‘lishini taqozo etadi.

Boshqacha qilib aytganda, agar JPK 84-moddasining 1-qismi 6-bandi tegishli organlar zimmasiga, shaxs aybini og‘irlashtiruvchi holatlarning mavjudligidan qat‘i nazar, jabrlanuvchining arizasi bo‘lmagan hollarda

shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish majburiyatini yuklasa, JKning 66¹-moddasida bunday qat'iy talablar mavjud emas va u faqat sudning jabrlanuvchi bilan gumon qilinuvchi (ayblanuvchi va sudlanuvchi)ning oddiy yarashuviga qaraganda kattaroq yuridik ahamiyatga ega javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo'lganda ishni tugatish imkonini beradi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, JKning 66¹-moddasi, JPK84-moddasining 1 -qismi 6-bandidagi asoslardan farqli o'laroq, ishni tugatish uchun mustaqil asoslarni nazarda tutadi. Shundan kelib chiqqan holda jabrlanuvchi bilan yarashish asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bilan xususiy ayblov ishlarini ko'rib chiqish tartibini birlashtirish to'g'risidagi fikrlar ilgari suriladi. Bunday turdagi «birlashtirish» tarafdorlari bir qarashda xususiy ayblov uchun juda muhim bo'lgan bir xususiyatni hisobga olishmagan. Ma'lumki, xususiy ayblov faqat jabrlanuvchining tashabbusi bilan, ayniqsa, unchalik og'ir bo'lmagan jinoyatlar sodir etilganda, taraflar yarashganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun boshqa holatlar nazarda tutilganda qo'zg'atiladi.

Yarashuvning normativ mustahkamlanishi asosida davlat manfaatlari yotadi, unda xususiy asoslar ifodasini izlash kerak emas. Xususiy ayblov va yarashuv munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish o'rtasidagi farqni tushunishda L.V. Golovkoning nuqtai nazari ishonchli ko'rinadi. Uning fikricha, «xususiy ayblov jinoiy javobgarlikdan ozod qilish va taraflarning kelishuvi munosabati bilan jinoyat ishini tugatish jinoiy-huquqiy nizolarni hal etish usullari to'g'risidagi mutlaqo yangi tasavvurlarning ifodasi hisoblanadi»¹. Aniqrog'i, yarashuv jinoyat huquqi va protsessida qonun chiqaruvchining JPKning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, jabrlanuvchining xohish-irodasi bilan jinoiy javobgarlikning boshlanishini bog'lashida emas, balki uning yarashuvda nizoni hal etishning maqbul variantini ko'rishidir.

Shunday qarash ham mavjudki, yarashuv munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishda qonun chiqaruvchi jinoyatga oid siyosatning yangi modelini, aynan, xususiy ayblov ishlari tizimidan zararni qoplashni rad etish asosida jinoiy ta'qibni tugatishni ilgari suradi. JKning 66¹-moddasiga asoslanib, 118-moddasi 1-qismi va 119-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkinmi? Boshqacha qilib aytganda, JPKning 84-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan prokuror qo'zg'atgan jinoyat ishini yoxud nomusga tegishning oddiy tarkibini sodir etganlik uchun jabrlanuvchining arizasi

¹ Каранг: Гуценко К.Ф., Головки Л.В., Филимонов Б.А. Уголовной процесс западных государств. – М. –2001. – С. 319.

asosida yoki jinsiy ehtiyojlarni g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyat ishini tugatish tartibiga tatbiq etiladimi? Qonun chiqaruvchi bunday imkoniyatni qonun darajasida istisno qiladi. Chunki JKning yuqorida tilga olingan moddasi yarashuv munosabati bilan aybdor shaxsni javobgarlikdan ozod qiluvchi normalar ro'yxatiga kiritilmagan. Bundan tashqari, ular jinoyatlarning amaldagi klassifikatsiyasiga (JKning 15-moddasi) asosan og'ir jinoyatlar sirasiga kiritilgan. Vaholanki, JKning 118-moddasi 1-qismi va 119-moddasi 1-qismidagi sanksiyalarning eng kam va yuqori chegaralari 3 yildan 7 yilgacha o'zgarib turadi, ya'ni eng kam (3 yildan 5 yilgacha) va og'ir jinoyatlar 5 yildan 10 yilgacha bo'ladi. Bu sharoit yuqorida qo'yilgan masalani hal etishni yaxshi tomonga o'zgartiradi. Oddiy tarkibdagi nomusga tegish va jabrlanuvchining xohish-irodasi bilan jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy shaklda qondirish sodir etilganda qo'zg'atiladigan jinoyat ishi faktini qonun chiqaruvchi ushbu protsessual institutni tarkibiy tuzilishiga ko'ra birinchi holatda qo'zg'atishni rad qilish va ikkinchi holatda jinoiy ta'qibni tugatish uchun tarkibiy bo'g'in bo'lib xizmat qiladigan yarashuv huquqiy instituti bilan tenglashtiradi. Umuman, jinoyat-sudlov ishlarining yarashuv asoslari imkoniyatlarini rivojlantirishda JKning 118-moddasi 1-qismi yoki 119-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni, agar jabrlanuvchi bilan yarashilgan bo'lsa, dastlabki tergov yoki sudning har qanday bosqichida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi masalani hal etishda o'xshashlik prinsipini tahlil qilish juda dolzarbdir.

Chunki amaliyotda nomusga tegish jinoyatini sodir etgan shaxs bilan jabrlanuvchining to'liq yarashgan holatlari ko'p uchraydi. Ba'zan aybdor va jinoyat qurboni hatto nikohdan o'tishga tayyorligini ma'lum qiladi. Bunday holatlarda jinoiy javobgarlikni amalga oshirish kriminologik nuqtai nazarda maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun nomusga tegish jinoyatini sodir etgan aybdorni yarashuv asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish imkoniyatini qonunga kiritish lozim. Bu bilan ozodlikdan mahrum qilish sanksiyasining yuqori chegarasini yetti yildan besh yilgacha kamaytirishga erishish mumkin bo'lardi. Buning natijasida bu jinoyat unchalik og'ir bo'lmagan kategoriyaga o'tgan va unga nisbatan yarashuv tartibi tatbiq etilgan bo'lar edi¹.

Yarashuv institutining rivojlanishidan JPK 84-moddasi 1-qismi 6-bandi ham dalolat berib turibdi, u JPK 325-moddasi talablariga aslo mos kelmaydi, chunki qo'zg'atilmagan jinoyat ishini tugatish mantiqsizdir. Boshqacha qilib aytganda, jabrlanuvchining shikoyati bo'lmaganligi tufayli shaxsning aybdorligi to'g'risidagi masalani hal qilmasdan turib jinoyat

¹ Қаранг: *Шестаков Д. А.* Семейная криминология (криминографамистика). – СПб., 2003. – С. 282.

ishini tugatishni tushunish qiyin (JPKning 84-moddasi 1-qismi 6-bandi). Chunki, agar JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan istisnoli holatlar mavjud bo'lmasa, jabrlanuvchi arizasining mavjud emasligi JKning 118-moddasi 1-qismi yoki 119-moddasining 1-qismi bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish uchun asos bo'ladi. Bunday huquqiy ziddiyatlar jinoiy-huquqiy tizimning yarashuv bazasini kengaytirishiga xalaqit beradi. Zero, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish lozim bo'ladigan vaziyatlarda jinoyat ishini tugatish – protsessual qaror qabul qilish yarashuv ishlarida huquqni qonuniy mustahkamlaydi, bu bir tomondan. Ikkinchi tomondan esa, JPKning 84-moddasi 1-qismi 6-bandini boshqacha talqin qilgan-da, shuni nazarda tutish mumkinki, qonun chiqaruvchi JPKning 84-moddasi 1-qismi 6-bandiga amal qilib, dastlabki tergov organlarining jinoyat ishini tugatish huquqini mustahkamlash bilan jabrlanuvchining arizasi mavjud bo'lmaganda, nomusga tegish bo'yicha jinoyat ishini tugatish yoxud jabrlanuvchining dastlabki tergov jarayonida bergan shikoyatini qaytarib olish imkoniyatiga yo'l qo'yadi. Bu esa, o'z navbatida, taraflar yarashuvi protsessual va huquqiy institutning ayrim imperativ qoidalari o'xshashligi to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi.

Shunday qilib, JKning 66¹-moddasi va JPKning 84-moddasi 4-qismi bilan tartibga solingan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini shunga o'xshash xususiy ayblov jinoyatlari to'g'risidagi, jumladan prokuror qo'zg'atgan ishlarga ham tatbiq etish mumkin. Vaholanki, JKning 118, 119-moddalarining 1-qismlarida nazarda tutilgan ishlar bo'yicha prokuror qo'zg'atgan jinoyat ishlari rasman JPKning 84-moddasi 1-qismi 6-bandiga muvofiq uning tugatilishiga to'sqinlik qiladi va bir qarashda JKning 66¹-moddasida bayon qilingan asoslar bo'yicha ko'rsatilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi masalani hal etishda biror-bir huquqiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin emas.

Biroq, surishtiruvchi, tergovchi va prokuror nomusga tegish yoki g'ayritabiiy usullarda jinsiy ehtiyojini qondirish to'g'risidagi jinoyat ishini qo'zg'atishdan oldin, xuddi jinoyat protsessining keyingi bosqichlaridagi kabi, ijtimoiy nizolarning kutilmagan oqibatlarini yuzaga kelishi mumkinligini e'tiborga olgan holda taraflarning kelishuvi uchun choralarni ko'rishga majbur. Bunda «yarashuv» va «kechirish» tushunchalarini aniq farqlash lozim. Jinoyat sodir etgan shaxsni kechirish huquqi davlatga tegishli (amnistiya, afv etish). Shuning uchun JKning 66¹-moddasida qonun chiqaruvchi faqat jabrlanuvchi bilan yarashuv to'g'risida so'z yuritadi. Bunda yarashuv deganda, jabrlanuvchining jinoyat sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risida bergan arizasini qaytarib olishi yoki

kelishuvga erishish munosabati bilan ushbu jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi ariza tushunilishi bejiz emas.

Taraflar o'rtasidagi yarashuv, V. Stepanov ta'kidlaganidek, «ixtiyoriy xohish-iroda akti bo'lmog'i lozim, shuning uchun har gal huquqni qo'llovchi jabrlanuvchining yarashuvga roziligi jinoyat sodir etgan shaxs yoki uning yaqinlari tomonidan qo'rqitish, tahdid va boshqalar oqibatida yuzaga kelgan majburiy holat emasligini tekshirib ko'rishi lozim»¹. Bunday holatlar aniqlanganda sud ayblanuvchini yarashuv asosida jinoiy javobgarliklardan ozod qilishga haqli emas.

Agar ish bo'yicha bir nechta jabrlanuvchi ishtirok etayotgan bo'lsa, aybdor zararni qoplashi va ularning har biri bilan yarashuvga erishmog'i lozim. Agar u zararni qoplagan va jabrlanuvchilarning faqat bittasi bilan yarashuvga erishgan bo'lsa, bunday shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi.

Yarashuvni tartibga soluvchi bu va boshqa qoidalar xalqaro tashkilotlarning turli huquqiy hujjatlarida o'z aksini topgan. Masalan, voyaga yetmagan huquqbuzarlarga ta'sir ko'rsatishning muqobil usullarini qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar 1995-yilda qabul qilingan Yuvenal yustitsiya bo'yicha qoidalarining minimal standartlari 11-moddasida nazarda tutilgan. Xususan, 11.4-moddasining qoidasi milliy qonun chiqaruvchiga JK va JPK-ga huquqbuzarga ta'sir ko'rsatishning muqobil imkoniyatlariga murojaat qilib, sudlov ishlarini tartibga soluvchi qoidalar qo'shishni uqtiradi.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar sonini qisqartirishni ilgari surgan jinoyat odil sudlovi sohasidagi mutaxassislar ham shunday xulosaga keldilar. Insonparvarlik qarashlari bilan birga, turmada saqlashga sarflanadigan xarajatlar va uning oqibatlaridan xalos bo'lishga urinish nuqtai nazaridan sof pragmatik vajlar ham mavjud.

Ushbu muammoga bag'ishlangan va Moskvada (1999-yil), Buyuk Britaniyada (1999-yil), Olmatada (1999-yil) bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyalarda jinoyat-ijroiya tizimi faoliyatini isloh qilish, ozodlikdan mahrum qilishning muqobil choralarini qo'llashni takomillashtirish va jadallashtirish zarurati yetilganligi ta'kidlanadi².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov jahonda yuz berayotgan huquqni muhofaza qilish sohasidagi vaziyatga o'z munosabatini bildirar ekan, «biz uchun, eng avvalo, jazolar tizimining qatag'on qiluvchi,

¹ *Степанов В.В.* Освобождение от уголовной ответственности в связи с примирением с потерпевшим // Российская юстиция. – 2001. – № 8. – С. 52.

² Каранг: *Кержнер М. Ю.* Использование СМИ в формировании общественного мнения по проблемам альтернативного наказания // Хукук–Право–Law. – 2002. – № 3. – С. 63.

jazolovchi funksiyalarini toraytirish va qisqartirish hisobiga qonunchilikning adolatlilik va insonparvarlik prinsiplarini amalga oshirishni ta'minlash muhimdir»¹, deb ta'kidladi. Bu mohiyat e'tibori bilan O'zbekistonda jabrlanuvchining huquqlarini qayta tiklash odil sudlovni shakllantirishning siyosiy shart-sharoiti sifatida yorqin namoyon bo'lmoqda.

Bu jihatdan jinoyat-sudlov ishlarining an'anaviy usullariga nisbatan munosabatda muqobil vosita bo'lgan jinoyat qurboniga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha kelishuvni ishlab chiqish maqsadida betaraf shaxs (mediator-vositachi) ishtirokida jinoyat qurboni (jabr ko'rgan) va huquqbuzar o'rtasida ixtiyoriy kelishuvga erishish shaklida yarashuv institutini takomillashtirish masalalari oldinga chiqadi.

Yevropa Kengashi Vazirlari Qo'mitasi o'zining 1999-yil 15-sentabrda qabul qilgan K 99 tavsiyasida jinoyatchilarning qayta ijtimoiylashuvi va jamiyatga singib ketishiga imkon beradigan mas'uliyat hissini kuchaytirishga qaratilgan jinoyat qurboni va huquqbuzar o'rtasidagi yarashuvda mediatsiyaning ahamiyatini ta'kidlab o'tdilar.

Chunki yarashuvchi (mediator-vositachi) jabrlanuvchi va jinoyatchini yarashtirish maqsadida ikki tomonni – huquqbuzar va uning qurbonini o'rtalarida kelib chiqqan muammoni hal etishga faol jalb qiladi. Natijada nizoni bartaraf etish imkoniyati kengayadi, yetkazilgan zarar tez va real qoplanishi ta'minlanadi, ularning muammoni hal etish bo'yicha kurashishi bartaraf qilinadi².

Yarashuvning huquqbuzarlarga sudlanganlik tamg'asidan qutilib qolish imkoniyatini berishi, jinoyat uchun an'anaviy jazolovchi sanksiya-ning muqobili hisoblanishi ham katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, huquqbuzarlar uchun foydasi yarashuv ularga o'z ishlarini hal etishda ishtirok etish imkoniyatini va boshqa odamga yetkazilgan zararni anglashga, o'z qilmishining oqibatlarini tushunib yetishga va so'ngra ularni qoplash imkoniyatini berishda ifodalanadi.

Yarashuv jabr ko'rganlar uchun ham foydalidir. U zararni qoplash muammosini hal etishga bevosita ta'sir ko'rsatadi, moddiy yoki ma'naviy shaklda zarar uchun to'lovni olish imkonini beradi, qo'rquv hissini kamaytiradi, ruhiy toliqishni yo'q qiladi.

¹ Каримов И. А. Адолат – қонун устуворлигида // Тинчлик ва хавфсизлик учун курашмоқ керак. Т.10. – Т., 2002. – Б.36–52.

² Қаранг: Комарицкий С.Н. Рецидив преступления со стороны осужденных к наказаниям, не связанный с лишением свободам: проблема предупреждения / В сб.: научных трудов: Уголовное наказание и проблема его исполнения. – М., 1998. – С. 105.

Mediatsiya natijasidagi yarashuv odil-sudlov organlari uchun ham, jamiyat uchun ham foydadan xoli emas. Chunki u fuqarolarning huquqiy tarbiyasiga ko‘mak beradi, xavfsizlik tuyg‘usini mustahkamlaydi, mablag‘lar, vaqt va tashkil qiluvchi kuchlarni tejash bilan birga, sudlarning nisbatan muhim ishlarni amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi¹.

Yarashuv institutining odil sudlovni tiklash – mediatsiya elementlarini joriy qilish tomonga rivojlanishi «yarashuv instituti tomonidan jinoyat qonunida mustahkamlanganlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ham, ayblanuvchi tomonidan ham suiiste’molliklar qilinishining oldini oladi. Chunki yarashuv bo‘lmaganida ayblanuvchilar jabrlanuvchilarga nisbatan, javobgarlikdan ozod bo‘lish maqsadida, tahdid qilish va majbur qilishga urindilar»².

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida, xususan, JKning 66¹-moddasida nazarda tutilgan jabrlanuvchi bilan yarashuvning jinoiy-huquqiy mexanizmi mavjud emasligi tufayli bu institut mantiqan tugal ko‘rinishga ega bo‘lmagan va bu uning potensialidan amaliyotda va nazariy o‘rganishda to‘liq foydalanishga to‘siq bo‘lmoqda.

Shunday qilib, tomonlarning yarashuvi institutini joriy etish konstitutsiyaviy asoslarning tatbiq etilishini, jamiyat tomonidan huquqbuzarni jazolash yoki uni jazolash bilan qo‘rqitish zarur bo‘lmagan taqdirda asl mohiyatiga ko‘ra huquqni tiklovchi odil sudlov konsepsiyasi ham joriy etilishini bildiradi. Boshqacha aytganda, jinoyat-sudlov ishlarini yuritishda yarashuv asoslarini kengaytirish istiqbollari faqatgina jinoyat huquqining rag‘batlantiruvchi normalarining rivojlanishinigina emas, balki milliy qonunchilikda ilgari mavjud bo‘lmagan mediatsiya institutining implemtasiya qilinishi zaruratini ham tug‘diradi. Bu esa yuzaga kelgan nizoning ildizini topib, retsidivdan ogohlantirish maqsadida jinoyat sodir etilishiga olib keluvchi sabablar, motivlarni aniqlash va bartaraf etish uchun ishtirokchilarning ruhiy qiyinchiliklarga uchrashiga barham beradi.

¹ Ю. И. Битко. Рецидив муаммосини ўрганар экан, қайта виктимлик юзага келишининг олдини олишда медиация институти асосий ўрин тутишини таъкидлайди. Қаранг: *Битко Ю.И. Учение о рецидиве преступлений в российском уголовном праве: история и современность: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук.* – Н. Новгород, 1998. – С. 37.

² *Абдиканов Н. А. О совершенствовании правового института освобождения от уголовной ответственности в связи с примирением сторон. / В сб.: О проблемах правоприменительной практики освобождения от уголовной ответственности в связи с примиренном сторон.* – Астана. – 2006. – С. 31.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т., 2000. – 525 б.

Каримов И. А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Т., 2001. – 439 б.

Каримов И. А. Адолат – қонун устуворлигида // Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. –Т., 2002. –Б.36–52.

Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. –Т., 2003. – 336 б.

Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza (2010-yil 12-noyabr). – Т., 2010. – 56 б.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т., 2014. – 40 б.

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: (2014 йил 1 октябргача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) Расмий нашр / Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т., 2010. – 408 б.

Ўзбекистон Республикасининг жиноят-процессуал кодекси (2014 йил 1 мартгача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан). Расмий нашр / Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. –Т., 2010. – 672 б.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят-ижроия кодекси (2014 йил 1 январгача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан). Расмий нашр / Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т., 2008. –192 б.

Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 29 августдаги «Жиноий жазоларнинг либераллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг Жиноят, Жиноят-процессуал кодекслари ҳамда Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги қонуни // (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – № 9–10. – 165-м).

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 25 октябрдаги «Ярашув тўғрисидаги ишлари бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 27-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. Иккинчи жилд. – Т., 2006. – Б. 126–129.

Зарипов З. С. Правовой механизм профилактики преступлений. – Т., 1990. – С. 169

Иногамов Ш. Озодликдан маҳрум этиш жазосига ҳукм қилинганларнинг жазони ўташ шароитларини таснифлаш ва дифференциаллаштириш. – Т., 2001. – Б. 71.

Иногамов Ш. Правовой статус осужденных в местах лишения свободы. - Давлат ва ҳуқуқ. – 2000. – № 3. – С. 62

Каракетов Й. М., Усмоналиев М. Социал муҳит ва жиноятчилар шахсининг шаклланиши // Ўзбекистон Республикаси қонунларини ривожлантириш масалалари ва уларнинг жиноятчиликка қарши курашда татбиқ этилиши. – Т., 1993. – Б. 48–49

Рустамбоев М. Х., Якубов А. С, Каракетов Ю. М. Концепция законодательства Республики Узбекистан о преступлениях и наказаниях. – Т., 1994. – С. 94

Саҳаддинов С. М. Суд муҳокамасида жиноят-процессуал ярашувни такомиллаштириш муаммолари: Юридик. фан. номз. ... дис. автореф. – Т., 2005. –18 б.

Якубов А. С, Кабулов Р. Новое в уголовном законодательстве. – Т., 1995.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
YARASHUV INSTITUTINING MOHIYATI VA IJTIMOY ZARURATI.....	5
YARASHUV TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISH TARTIBINING VUJUDGA KELISHI VA AHAMIYATI.....	8
YARASHUV TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISHNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	17
YARASHUV TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISH BO‘YICHA DASTLABKI TERGOV ORGANLARI FAOLIYATINING PROTSESSUAL TARTIBI	28
DASTLABKI TERGOV ORGANLARI TOMONIDAN YARASHUV TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	31
HUQUQNI TIKLOVCHI ODIL SUDLOV – YARASHTIRUV INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHI	44
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	60

Sanjar Melsovich NIZAMOV

YARASHUV TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISH
BO‘YICHA DASTLABKI TERGOV ORGANLARI
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

O‘QUV QO‘LLANMA

*Muharrirlar B. A. Yarov
Texnik muharrir D. R. Djalilov*

Bosishga ruxsat etildi 20.03.2016. Nashriyot hisob tabag‘i 4,5.
Adadi 20 nusxa. Buyurtma № _____. Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent shahri, Intizor ko‘chasi, 68.